b. Joriy holat-bunda bir necha mashg‘ulot (mikrosikl, mashgulotlari) ta‘sirida sportchining ahvoli o‘zgaradi. Bu esa qisqa bir muddat ichida amalga oshirilgan ilmiy natijasiga baho berish hamda yaqin kelajakdagi davr uchun tuzilajak dasturni belgilab olish imkoniyatini beradi.

v. Tezkor holat-bunda ayrim mashqlar mashq vazifasi bajarilishi ta‘siri ostida o‘zgarishlar sodir boladi. Ular tezda o‘tib ketadi. Bunday holat (tezkor holat) mashq mashg‘ulotlari, uning shiddati, dam olish oraliqlari rejalashtirilayotgan vaqtda hisobga olinadi.

Musobaqa faoliyatini tezkor boshqarish, sportchiga uning harakatlari samaradorligi, tehnik taqiq rejalarga roya qilishi, asosiy raqiblarning chiqishlariga hhos hususiyatlar togrisida muntazam ahborot berib turish bilan bog‘liq. Har bir sport turida tezkor boshqaruvning o‘z tizimi bor, boshqaruv ko‘p qirrali jarayon sifatida o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Sportchining alohida xususiyatlari va imkoniyatlarini belgilash
2. Maqsadlar va ulaga erishish yollarining davomiyligini belgilash
3. O‘rgatish, tarbiyalash va funksional imkoniyatlarini oshirishning imkon qadar aniqroq vazifalarini belgilash
4. Yuklama, shakl kattaliklari, davrlashtirish vosita va usullar va hokozalarni tanlash
5. Mashg‘ulotning umumiy va alohida rejalarini (birnecha yil, oy) tuzish
6. Rejani amalda bajarish, sportchining funksional imkoniyatlari hamda musobaqalar ta’siri va yuklamalarining sportchi funksional imkoniyatlari hamda (musobaqalar) uning tayyorgarligi dinamikasiga muvofiq ravishda boshqarish

Model-barqaror narsani yaratish uchun na‘muna degani.

Sport mashg‘ulotlarida turli hil modellardan foydalaniladi. Ularning taxminan 2 guruhga ajratish mumkin.

1-chi guruh-bunga oldindan belgilab olingan natijalar mo‘ljallangan holda amalga oshiriladigan musobaqalashish faoliyati tuzilmasiga oid bo‘lgan modellar, morfofunksional modellar, tayorgarlikning turli jihatlari darajasi tavsiflovchi modellar kiradi.

2-chi guruh-Ko‘p yillik tayorgarlikdinamikasida sport jarohatining holatini aks ettiruvchi model. Makro, mezzo va tuzilmalar modellari. Bunda ko‘p yillik tayorgarlik bosqichlardan boshlab ayrim mashg‘ulotlar mashqlari va ularning majmualari kiradi.

BO’LAJAK TIBBIYOT MUTAXASSISLARINING XORIJIY TIL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING MUHIM JIHATLARI

Tuychibayeva Maftuna Baxodirovna

Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tayanch-doktoranti

maftunatuychibaeva@gmail.com,

ORCID: 0009-0000-8354-2988

Annotatsiya: Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanmoqda va har bir ta’lim muassasasi o’qituvchisining vazifasi talabalarni ilmiy sohaga qiziqtirish, innovatsion jarayonlarga qiziqish uyg’otishdir. Shu maqsadda ta’lim muassasasida talabani qay darajada xorijiy tillarni o’rganayotganlik darajasini aniqlash maqsadida diagnostik yondoshuv asosida talabalarga berilayotgan ta’lim sifatini aniqlash tizimi joriy etilmoqda. Chet tilni o’qitishda nazorat alohida e’tiborga loyiqdir, chunki u ta’limni boshqarish funksiyasini amalga oshirish sinfda berilgan materialni takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi va tilni o’rgatish usullaridan biridir. Boshqarish funksiyasi maxsus o’quv materiallari va ularni boshqarish paytida qo’llash uchun ishlab chiqilgan metodologiyadan foydalangan holda tilni o’zlashtirish jarayonini nazorat qilishni ta’minlaydi.

Kalit so’zlar: diagnostika, diagnostik testlar, didaktik konsepsiya, kognitiv kompetensiya, kommunikativ kompetensiyalar, ko’nikma, monitoring, nazorat prinsiplari;

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИНОСТРАННОЯЗЫЧНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Абстрактный: Сегодня современные технологии стремительно развиваются, и задача преподавателя каждого учебного заведения – заинтересовать студентов научной сферой, вызвать интерес к инновационным процессам. С этой целью в образовательном учреждении внедряется система определения качества образования, предоставляемого студентам, на основе диагностического подхода с целью определения уровня владения иностранным языком студентов. Особого внимания при обучении иностранному языку заслуживает супервизия, поскольку она помогает повторить и закрепить материал, пройденный на уроке, и является одним из методов обучения языку. Функция управления обеспечивает контроль процесса освоения языка с использованием специальных учебных материалов и методики, разработанной для их использования в процессе управления.

Ключевые слова: диагностика, диагностические тесты, дидактическая концепция, когнитивная компетентность, коммуникативная компетентность, навыки, мониторинг, принципы контроля;

IMPORTANT ASPECTS OF FOREIGN LANGUAGE COMMUNICATIVE COMPETENCES OF FUTURE MEDICAL SPECIALISTS

Abstract: *Today, modern technologies are rapidly developing, and the task of the teacher of each educational institution is to interest students in the scientific field and arouse interest in innovative processes. To this end, the educational institution is introducing a system for determining the quality of education provided to students, based on a diagnostic approach in order to determine the level of foreign language proficiency of students. Supervision deserves special attention when teaching a foreign language, since it helps to repeat and consolidate the material covered in the lesson, and is one of the methods of language teaching. The management function ensures control of the language acquisition process using special educational materials and methods developed for their use in the management process.*

Key words: *diagnostics, diagnostic tests, didactic concept, cognitive competence, communicative competence, skills, monitoring, control principles;*

Various lexical and grammatical structures, as well as the correctness of their use, are taken into account in the assessment of oral speech skills; message width and sequence; compatibility of linguistic tools with the communication situation; volume of speech; existence of speech intention and its implementation; number of sentences expressing subjective information. The language tools used by the speaker are also taken into account.

These quantitative and qualitative indicators should be supplemented with an assessment of the semantic side of the statement. However, the main criterion for successful completion of the test task is solving the communicative task. Summarizing the existing criteria for evaluating students' oral answers during exams and monitoring activities, the following indicators can be noted that allow assessing the level of foreign language communicative competence formation:

1. The student solved the communicative task: the high skill of reading and understanding the content of the text in a foreign language was noted; the student actively participates in the conversation, answers the questions; models the situation proposed by the examiner; finds a solution to a problem; gives examples from personal experience; formulates answers correctly; provides accurate descriptions of the images provided. In general, his answer is distinguished by his literacy and correctness of foreign language speech construction.

2. The student solved the communicative task: good reading ability was noted, but with phonetic inaccuracies and pronunciation confusion; active participation in the conversation is noted, semantic meaning is preserved in the answers, but the sentences are not always correctly structured; correctly models the situation, but makes mistakes. thinking and expressing one's opinion; the problematic situation is not fully disclosed, he has difficulty with words; the description of the illustrations is correct but short in size. The student's answers are generally correct, but compressed in length and contain minor inaccuracies and gross lexical and grammatical errors.

3. The student could not fully solve the communicative task: low level of reading ability with the assumption of a large number of speech errors; in the conversation, he shows passivity, is lost in understanding the semantic content of the examiner's question and forming his answer; it is difficult to model the situation, to understand its meaning, and accordingly it is impossible to make a judgment; the problem-solving question is ignored; The description of the depicted materials is difficult, and the enumeration of the elements is a bad set. In general, the student's answers are incomplete with gross errors.

These criteria can serve as indicators of high, medium and low levels of formation of foreign language communicative competence of students, respectively. At the same time, the complexity, form and content of tasks for students should correspond to the level of knowledge of a foreign language, and the execution of tasks should be interactive. You should also provide recommendations for preparing for a specific type of assignment. The educational process should be organized in such a way that it allows most students to develop communicative competence in a foreign language at an average or high level.

The oral test is an important component of monitoring the level of formation of students' communicative competence in a foreign language, and for its successful organization and conduct, thorough preparation is required from all participants of the educational process.

A number of studies show that a modern educational institution should be characterized by directing pedagogical goals to the self-awareness of the student and determining the educational result through the competence of the future specialist, which requires the teacher to have diagnostic skills and flexible correction of the pedagogical process.

The main goal of diagnostics in any human activity is to correctly assess the situation under consideration in order to form an effective action.

Diagnostic purposes:

Check lexical-grammatical knowledge;

Collection of statistical data;

Organization of information in a consistent, concise and reliable manner;

monitoring the dynamics of learning lexical-grammatical materials; predicting the result and determining the direction of work for the next year.

Diagnostics includes monitoring, checking, evaluation, collecting statistical data, analyzing their dynamics, trends and forecasting further development. Many methods and techniques are used in this. In addition to traditional control methods, testing, assessment, knowledge and skills assessment, testing of students' learning and education, study of students' potential capabilities (this characteristic is called learning ability), design of personal and person-oriented learning process and other methods are used.

The most important principles for diagnosing and monitoring learning (level of mastery) are objectivity, consistency, and visibility. Objectivity consists of scientifically based content of diagnostic tests, tasks (questions), diagnostic procedures; friendly attitude of the teacher to all children, clear, well-defined criteria for assessing knowledge and skills.

The requirements of the principle of systematicity consist of the need for diagnostic monitoring at all stages of the pedagogical process - from the initial perception of tasks to their practical application. The principle of accuracy is to conduct open tests of all students

according to the same criteria. The rating of each student determined during the diagnostic process is visual, comparable in nature. The principle also requires that evaluation be publicized and encouraged. Assessment is instruction in which children evaluate their own standards of inquiry as well as the teacher's objectivity. A prerequisite for the implementation of the principle of accuracy is the publication of the results of diagnostic departments, their discussion and analysis.

REFERENCES:

1. Konsheva A.V. Chet tillarini o’qitishni individuallashtirishda xotira turini hisobga olish zarurati // Zamonaviy dunyoda individuallik: III xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - Smolensk, 1999. b. 142-147
2. I. H. Iminakhunova “ Management and development of students’ selfeducation in the process of learning English“ . Academia International scientific journal. 25-29pp
3. Kadirova Munira Rasulovna, Iminaxunova Iroda Xuseynovna “Theoretical analysis of self-education in learning English”. Academia International scientific journal. 25-29pp
4. Parpieva O.R, Hojikarimova G.T, Nazirova A.M №6(85) 2021. 157-161-bet. (Formation of student pedagogical skills based on the requirements of innovative educational environment// Международном научнопрактическом журнал “Экономика и социум).
5. Arras U. Kompetenzorientierung im Fremdsprachenunterricht – was heißt das eigentlich? [Elektronnyy resurs] // Pandaemonium germanicum. – 2009. – 14 (2). – S. 206–217. URL: http://www.testdaf.de/institution/_Pandemonium_2009_Kompetenzyorientierung.pdf (data obraçeniya: 15.02.2016)
6. A.Zimnyaya. – Maktabda chet tillarni o’qitish psixologiyasi. – М-Просвещение 1991. 219 b.
7. Bim I. L. ba’zi dolzarb muammolar/maktabda chet tillarini o’qitishning zamonaviy chet tillari, 2001 yil, 4-son. 5-7 betlar
8. Chabner, D. E. The Language of Medicine - New York: W. B. Saunders Company 1998, 1036 p.
9. Druganova B. English Medical terminology - different ways of forming medical terms // JAHR. -2013. Vol. 4., № 7. - P. 55-69.
10. Ende K., Grotjan R., Kleppin K. Mohr Imke Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung. – Berlin, München: Langenscheidt, 2013. – 152 s

ZAMONAVIY TA’LIM SOHASIDA ILG’OR XORIJIY TAJRIBALAR

G.F.Ochilova

Navoiy Davlat Universiteti o’qituvchisi

Talaba M.Sattorova

Annatsiya: Ushbu maqolamiz mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar, zamonaviy ta’lim sohasida ilg’or xorijiy tajribalardan foydalanish, dunyoda ta’lim tizimi eng rivoj topgan davlatlar Finlandiya, Amerika Qo’shma Shtatlari va Yaponiya kabi davlatlarning ta’lim tizimi va ulardan andoza olgan holda ta’lim tizimimizni rivojlantirish haqida ham aytib o’tdik.

Kalit so’zlar: ta’lim, islohot, axborot texnologiyalari, xorijiy tajribalar, sifatli va samarali ta’lim tizimi kabi so’zlardan foydalandim

Butun dunyoda ko’zga ko’ringan olim va mutaxassislar jahondagi mashhur o’quv yurtlari nufuzli xalqaro tuzilmalarning rahbarlari va vakillari ishtiroki sifatida O’zbekistonda shakllangan ta’lim tizimini isloh etish modeli va uni amalga oshirish bo’yicha to’langan tajribaning muhokama qilinishi biz uchun yuksak sharaftir.

Hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirish butun dunyoda ta’lim tizimidagi eng muhim va asosiy masalalardan biri bo’lib qolmoqda. Shuning uchun ham oliy ta’lim sifatini baholashdagi tadqiq qilishga ehtiyoj tug’iladi.

Ta’lim sifati va ta’lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko’rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta’limga qanchalik ko’p mablag sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo’ladi.

Yurtimizda matematika, kimyo, fizika, va biologiya darslarining 10 foizigina amaliy mashg’ulotga ajratilgan. Rivojlantirilgan davlatlarda bu ko’rsatkich 30-50 foizni tashkil etadi. Shu bois xalq ta’limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga o’quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, aniq fanlarda amaliy mashg’ulotlar kolamini oshirish vazifasi qo’yildi.

Finlyandiya ta’lim tizimining o’ziga xosligi ta’lim jarayonida asosiy ustuvorlik o’qituvchi va o’quvchi uchun imkon qadar erkin, qulay, jismoniy zo’riqish va ruhiy bosimlardan holi muhit yaratishga qaratilganligida namoyon bo’ladi. Finlyandiya ta’lim tizimi dunyo miqyosida eng sifatli va samarali deya e’tirof etilgan ta’lim tizimlaridan biri hisoblanadi. Bu tizim dunyoning aksariyat davlatlarida amal qiluvchi ta’limning an’anaviy shakllari va usullaridan keskin farq qiladigan bir qator xususiyatlarga ega.

Yurtimizda Finlandiya ta’lim tizimidan ham keng qo’llanib kelinmoqda. Bunda quyidagilarni aytib o’tishimiz mumkin

O’zbekistonda so’nggi vaqtlarda ta’limning finlyandcha tajribasi haqida yuqori minbarlardan turib ko’p gapirilmoqda. Dastlab Sirdaryo viloyatiga tashrifi vaqtida prezident Shavkat Mirziyoyev boshlang’ich maktablar uchun «Finlyandiya standartlari» asosida darsliklar ishlab chiqilishini e’lon qildi va bu qarorni «Finlyandiya xalq ta’limi Yevropada va

umuman butun dunyoda raqobatbardosh ekani» bilan izohladi. Keyinroq Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan prezident huzuridagi yig'ilishda kelgusi o'quv yilidan boshlab viloyatning 48 ta maktabida Finlyandiya ta'lim tizimini tatbiq etish to'g'risida ko'rsatma berildi. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ushbu masala finlyandiyalik ekspert bilan muhokama qilingani haqida hisobot berdi.

"Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk davlat kuch ham bu - ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqbollari, birinchi navbatdagi, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarakchas bog'liq"- Shavkat Mirziyoev.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida ta'lim tizimida ko'plab yangicha islohatlar amalga oshirilmoqda. O'zining ta'lim tizimi bilan yuqori o'rinlarni egallab olgan Finlandiya ta'lim tizimi qanday misol tiriqasida kelib chiqadi. Finlandiyaning ta'lim tizimi bilan o'zining boshqaruv tizimidan barqaror turadi. Finlyandiyaning asosiy maqsadi belgilab berilgan:

- 1) o'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'ni olish
- 2) jamiyatda va tenglikni targ'ib qilish hamda
- 3) mamlakat bo'ylab ta'lim butun tenglikni ta'minlash.

Finlyandiya aholisi bugungi kunda 5,5 mln. kishini tashkil qiladi va mamlakatda mavjud 2341 ta umumta'lim maktablarida 560500 nafar o'quvchi tahsil oladi. Maktablarda haftasiga 5 kunlik o'qish joriy qilingan. Barcha maktablar xil mavqega, bolalarga ko'ra turli sinf yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim egaga bir ajratilmaydi.

Finlyandiya ta'lim omilini aniqlash 7 ta o'rnatish mumkin deyish mumkin:

1. Tenglik - Finlyandiyadagi barcha maktablar o'quvchilarga bir xil sharoit va bir xil ta'lim taqdim etadi.

2. Bepul ta'lim - bepul ta'lim berish bilan yaqin o'quvchilarga barcha o'quv jihozlari va tushlik ham bepul taqdim etiladi.

3. Individuallik - darslarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan o'qituvchilar yoki yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar alohida shug'ullanishadi. Finlyandiya o'quvchilar qo'shimcha darslarga qoldirilmaydi.

4. Amaliylik - o'quvchilarni imtihonga emas balki hayotga tayyorlash. Darslarda o'quvchilar, masalan, qanday yuklash, qayta ishlash, saytlar, tikish, ovqat pishirish, marketing va sotuv ishlari bilan shug'ullanish kabi amaliy ishlar bilan shug'ullanadi.

5. Ishonch va o' tarbiyalanuvchilari - maktablardagi o'qituvchilarning magistratura darajasiga ega bo'lishlari shart. O'quvchilarga uy farzandlari berilmaydi, ota-onalari bilan uyda shug'ullanmaydi va o'qituvchilarning o'quvchilarini hayotga tayyorlashga to'liq ishonishadi.

6. Ixtiyoriylik - dars jarayonida qay darajada ishtirok etish o'quvchilar ixtiyorida. O'qituvchilar o'quvchilarni darsga qiziqтира olmasalar o'quvchilar sinfini tark etishi yoki o'zlari yoqtirgan boshqa biror mashg'ulot bilan shug'ullanishi mumkin.

7. Mustaqillik - fin ta'lim tizimida o'qituvchilar o'quvchilarni imkon qadar o'zlari bilim va ko'rishni o'zlashtirishlari kerakligiga yo'qotishadi. Bilimlarni hayotda tatbiq etish ko'rinishidagi amaliy mashg'ulotlar yordamida shakllantiriladi. O'quvchilarning qanday fikrlari inobatlanadiga har va qo'llab quvvatlanadi.

Bundan tashqari, fin jamiyatida mavjud yuqori saviyadagi kitobxonlik madaniyati ham o'quvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Xulosa qilib aytganda, Finlyandiya ta'lim inqirozi fin xalqining qadriyatlari va madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Finlyandiya olish, ta muvaffaqiyatidan saboq'lim un chuqur o'zimizga moslashtirgan holda yuklashimiz zarur.[2]

O'zining ta'lim tizimi bilan Amerika ham ko'plab talabalarni o'ziga jalb kompaniyalardan biridir. U yerda sifatli ta'lim, dunyoga tanilgan professor-o'qituvchilar va zamonaviy infratuzilma va darajasi mavjud. AQSH lar ikki milliondan ortiq kurslarni taklif qiladi. Oliy ta'limda bakalavriat va aspirantura mavjud. AQSH kredit tizimiga o'tgan bo'lib, unda o'qish dasturingizni yakunlash uchun 30kreditni to'plash kerak.

AQSH maktablarida o'qish uslubi boshqanikidan biroz farq qiladi. Ular nazariy bilimga emas, balki amaliy bilimga ko'proq e'tibor berishadi. Dunyodagi eng nufuzli ta'lim tizimlaridan birida ta'lim olish sizni yorug'likda turishingizga yordam beradi. , AQSh talaba ta'limiga dunyoning davlatiga nisbatan ko'proq pul sarflaydi.

Bu AQSh ta'lim tizimi eng yaxshilaridan biri bo'lishining sabablaridan biridir. Amerika Qo'shmalariga nisbatan savodxonlik hajmi 99 foizni tashkil qiladi. Fuqarolarni zarur'ich ma'lumotga ega bo'lish uchun yig'adigan qonun tufayli. Ush shtat qonunchiligini 6 yoshdan 8 ta bo'lgan 16 yoshdan 18 ta bo'lgan har bir talaba ta'lim olishi kerak. Xulosa shuki AQSh ta'lim tizimi tahlili uning tarkibidagi xilma-xilligi, ta'lim tizimidagi talablar, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unligi hamda dunyo miqyosida tan olingan universitetlardir.

Amerika va Finlyandiya davlatlari ta'limiga asoslangan barqarorlik yillardan beri o'quvchilarning dasturlarida yuqori darajaga erishishning asosi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Finlandiya davlati o'quvchilari hamma narsada tabiiy fanlar bo'yicha - dunyoda, matematika bo'yicha esa, beshinchi o'rinni egallaydi. Biz bolani yo hayotga tayyorlaymiz, yo-imtihonga. Biz birinchisini tanladik, shiori Finlyandiya ta'lining yuqori shiorilaridandir. Yoki Amerika ta'lim tizimidagi zamonaviy texnologiyabilan yilga davlatga dunyo bo'ylab yildan ko'plab o'qituvchilarni qiziqtirib qo'yishi bularning ta'lim tizimini o'rganib amaliyotga olib tashlashni anglatadi. Yana bir ta'lim sohasida yuqori cho'qqilarga erishgan Yaponiya ham ta'lim tizimi haqida gapiradigan bo'lsak

Bizning Yaponiya ta'limidan o'rganadigan narsamiz juda ham ko'p. Eng asosiysi, yuqorida aytib o'tganimdek, tartib-intizomni yo'lga qo'yishimiz kerak. Bu yerda darsdan 5 daqiqa oldin o'quvchi, albatta, sinfda bo'lishi kerak. Dars vaqtida, hech maktabda, yo'laklarda qanday o'quvchi qo'shilganda yurmaydi. Demak, biz eng asosiysi, yaponlardan tartib-intizomni o'rganishimiz kerak. Bundan tashqari o'qituvchilarning o'qitish metodikasi ham o'ziga xos. Yapon ustozlari doimo malaka oshirib boradi. Ular bizga o'xshab tegishli malaka institutlariga borishmaydi. Aksincha, bir-larining darslariga kirib yoki boshqa maktablarga borib asoslangan malaka yordamadi. Darslardan so'ng esa alohida muhokamalar bo'ladi. Bundan tashqari, Yaponiya o'qituvchilari juda ham mehnatkash, qattiq ishlashadi. Ertalab 7:00 dan ishga kelishsa, qoida bo'yicha 17:00 gacha ishlash kerak bo'lsa-da, ular 19:00 - 20:00 gacha ishlashadi. sinf o'qituvchilari 23:00 gacha ham yuqori qolib ishlaydi. Yaponiyada o'qituvchilar uchun alohida bayram kuni yo'q. Bu yerda bir kun emas, har kuni o'qituvchini e'zozlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, Prezidentimizning bizning yoshlarga qaratayotgan e’tibori, yurtimizda ta’lim va tarbiyani birdek olib borish, yoshlarimizning ta’lim olishiga imkon yaratib berish, zamonaviy axborot texnologiyalarini mukammal puxta egallashi va yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T: O'zbekiston, 2017. 104 b.
2. Sulaymon Amirqulovich Xudayarov. (2020). Tarix darslarida integratsiyalashgan texnologiyalardan foydalanish. Science and Education. 1(8).666-671

ARAB TILI VA UNING MARKAZIY OSIYOGA KIRIB KELISHI TARIXI

A.M.Nomozov

(Sharq tillari fakulteti tyutori , SamSIFL)+998946189290

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi arab tili va yozuvining tarixiy rivojlanishi, uning Markaziy Osiyoga kirib kelishi va bu jarayonning ilmiy va madaniy ta'siri tahlil qilinadi. Arab yozuvi qadimgi finikiy yozuvi asosida shakllanib, arab tilining ifodasi uchun yangi harflar qo'shib, o'zining grafikasini rivojlantirgan. Arab tili islom dini bilan birga tarqalib, O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining madaniy hayotida xalqaro til sifatida keng qo'llanilgan. Arab yozuvi Movarounnahrda VII asrda kirib, bu hududda o'zining ilmiy va madaniy ahamiyatini oshirgan. Tezisdagi arab tilining o'rta asrlar davridagi ilm-fan, falsafa va adabiyotga qo'shgan hissi, shuningdek, arab yozuvidan foydalanishning tarixiy jarayonlari yoritilgan. Maqola arab tilining Yevropa madaniyati va ilmiga ta'sirini ham o'rganadi, shu bilan birga, arab yozuvining butun dunyoda tarqalishi va uning hozirgi kungacha davom etayotgan ta'siri haqida batafsil ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Arab tili, arab yozuvi, Markaziy Osiyo, ilm-fan, madaniyat, islom dini, Sharq uyg'onishi, arab adabiy tili, tarjima, Yevropa ta'siri.

Arab tili o'zining qadimgi tarixiga ega bo'lib, tarixi va rivojlanishi juda keng qamrovli. Arab yozuvining eng qadimgi shakllari Lixyan, Semud, Saf, an-Nimar kabi yozuvlardan boshlab, arab yozuvining ilmiy va adabiy ahamiyati tezlik bilan o'sdi. Arab tili butun O'rta va Yaqin Sharqda, shuningdek, Afrikada, Yevropaning ba'zi qismlarida ham keng tarqalgan. Arab yozuvi va tili, islom dini tarqalishi bilan yanada rivojlanib, o'zining madaniy ta'sirini butun dunyoga yoydi.

Arab yozuvi miloddan avvalgi III-IV asrlarda shakllanib, arab tilining ifodasi uchun qo'llanila boshladi. Arablar o'zlarining yozuvini 22 ta harfdan 28 tagacha bo'lgan alifbo asosida rivojlantirdilar. Arab yozuvi, aslida, finikiy yozuvi asosida shakllangan bo'lib, bu yozuvda harflar so'z boshida, o'rtasida, oxirida va alohida shakllarda yoziladi. Yozuvda faqat undosh tovushlar ifodalangan, unlilarni ifoda qilishda esa harakatlar ishlatiladi.

Arab tilining tarixi, asosan, islom dinining tarqalishi bilan bog'liq. Islomning tarqalishi arab tilini nafaqat diniy, balki ilmiy va madaniy jihatdan ham markaziy rolga olib chiqdi. Arab tili butun O'rta va Yaqin Sharqning ko'plab tillariga leksik jihatdan ta'sir ko'rsatdi. Masalan, turk, fors, afg'on tillarida arabcha so'zlar katta o'rin tutadi. Arab tilining ta'siri faqat so'z boyligida emas, balki ilm-fan, tibbiyot, falsafa, matematikada ham o'z aksini topdi. Sharq uyg'onish davri va ilm-fanidagi yutuqlar Yevropa uyg'onishiga ta'sir ko'rsatgan.

Arab yozuvi va tili Movarounnahrda VII asrda kirib keldi. VIII asr boshlarida arab yozuvida yozilgan hujjatlar saqlangan bo'lib, Panjikent hokimi Divashtichning arab xalifaligining Xurosondagi noibiga yo'llagan maktubi bunga misoldir. Arab yozuvi Movarounnahrda XIII asrgacha faqat arab va fors-tojik tillarida ishlatilgan. XIII asrda esa turkiy tildagi hujjatlar arab yozuvida yaratilgan.

Arab yozuvi nafaqat islomiy diniy asarlar uchun, balki ilmiy va adabiy asarlar uchun ham asosiy vosita bo'lib, turli ilm-fan sohalarida arab tilida ko'plab asarlar yaratilgan. Yevropaga arab tilidagi asarlar ko'plab tarjimalar orqali kirib borgan va Yevropadagi ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda katta rol o'ynagan.

Arab tili, shuningdek, XX asrda Arabiston yarim orolida va Shimoliy Afrikada davlat tili sifatida mustahkamlandi. Bugungi kunda arab tili 22 ta arab davlatining rasmiy tili bo'lib, u nafaqat davlat idoralarida, balki ommaviy axborot vositalarida, ilm-fanda va adabiyotda ham keng qo'llaniladi. Arab adabiy tili o'zining rasmiy va standart shaklida, ko'plab mahalliy lahjalarga ega bo'lsa-da, butun arab dunyosida birlashuv va madaniy aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo hududida arab tili va yozuvi tarqalishi, o'sha davrda ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Arab yozuvi bu hududda o'zining ma'naviy va ilmiy ta'sirini o'tkazib, Sharqdagi buyuk mutafakkirlarning asarlarini saqlashda va ular orqali Yevropa ilm-faniga ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynadi.

Arab yozuvining VII asrdan XIV asrgacha shakllangan va mashhur nazariyotchi xattotlar tomonidan e'tirof etilgan – kufiy, suls, nash, muhaqqaq, rayhoni, tavqe', riqo deb atalgan yetti uslubi mavjud. Ayrim xattotlar kufiyini asosiy uslublar qatoriga kiritmaydilar. Chunki, ular keyingi olti uslub kufiydan o'sib chiqib shakllangan, deb hisoblaydilar. XIV asr oxirlarida yuzaga kelgan nastaliq va XVIII asrda paydo bo'lgan shikasta xatlarini ham ba'zi xattotlar arab yozuvining asosiy uslublariga qo'shadilar.

Islom dini va arab tilining VII asr ikkinchi yarmidan boshlab Yaqin va O'rta Sharqdagi qator o'lkalarga, keyinroq esa Afrika, janubiy Yevropa va Osiyodagi ko'p joylarga tarqalishi bilan arab yozuvi ham birgalikda kirib bordi. Natijada arab yozuvi o'sha o'lkalardagi xalqlar tomonidan o'zlashtirildi va mahalliy tillarga moslashtirilgan holda qo'llana boshlandi.

Arab yozuvi Movarounnahrda VII asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. VIII asr boshlarida arab xatida yozilgan hujjatlar saqlangan. Bunga misol qilib Panjikent hokimi Divashtichning Arab xalifaligining Xurosondagi noibiga yo'llagan maktubini keltirish mumkin.

Arab yozuvi Movarounnahrda kirib kelgandan boshlab XIII asrlarga qadar bu yozuvda bitilgan birorta turkiy tildagi hujjat, manba hozirgacha ma'lum emas. XIII asrga qadar mazkur yozuvdagi barcha manbalar asosan arab tilida va qisman fors-tojik tilida kitobat qilingan.

Yunon olimlarining asarlari 8-9-asrlarda arab tiliga tarjima qilindi. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham o'z ustozlari deb hisoblashgan, Aflotun qarashlari Ibn al-Arabga ta'sir etib, "vahdatul vujud" falsafasiga turtki berdi. Biroq yunonlar ko'p fikrlarni qadimiy osiyoliklardan olganlar. Bu tarix qonuniyati Abu Rayhon Beruniyning "Kitob at-tafhim li avoil sinoat at-tanjim" asari qo'lyozmasi (XIII-asr) yuksalishga shaylangan xalq o'z madaniyati va o'zigacha yaratilgan bashariy yutuqlarni o'zlashtirib, yana yuksaklikka ko'tariladi.

Sharq uyg'onish davri keng ko'lamli: ta'lim va tahlil, madrasa va maorif rivojlangan, ulkan kutubxonalarda yuz minglab jild kitoblar yig'ilgan, "xazinat ul-hikma", "dor ul-ulum"larda tolibi ilmlar, ustoz-shogirdlar suhbatlari bardavom edi, olimning obro'-e'tibori yuksak qadrlandi. Sharq Uyg'onish davri yutuqlari G'arbiy Yevropadagi uyg'onish davriga bevosita ta'sir etgan. Chunki XII-XIV asrlarda musulmon olami bilan Yevropa davlatlari

orasida aloqa kuchaygan edi. Ayniqsa, tutash chegara mamlakatlari: Qurdoba (Ispaniya), Kavkaz, Bolqon yarim orolida bu jarayon kuchli bo‘lgan. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida o‘qib o‘rganganlar. Ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Ash shifo", Forobiyning "Ilmlar tasnifi", Ahmad Farg‘oniyning "Samo harakatlari va yulduzlar ilmining jami kitobi", Muhammad Muso Xorazmiyning "Aljabr val muqobala", Ibn Rushd, Abu Bakr Roziy asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan. Algebra, algoritm fanlari Xorazmiy asarlari tufayli shakllangan. "Tib qonunlari" VII asr mobaynida Yevropada tibbiyot darsligi sifatida xizmat qildi. Ibn Sino shogirdi Ibn Rashid g‘oyalari Italiya, Fransiya hurfikrligini boshlab bergan. Ibn Sino - Avitsenna, Ibn Rashid -Averroes, Ahmad Farg‘oniy - Al-Frageni, Abu Bakr Roziy - Al-Ramzats, Abu Ma’shar Balxiy – Al-Bumazar degan lotincha nomlar ostida mashhur bo‘lgan. "O’sha paytda (XIII-XVI asr) jaholat changalidagi Yevro‘paning ko‘pgina qismida musulmonlar ilm charog‘ini yoqdilar, ispanlar yozuvi ham, shimoliy oromiy yozuvi ham Osiyodan olingan, shimoliy - g‘arbiy va sharqiy Yevropa madaniyati yunon-rim-arab urug‘idan unib chiqqandir" [] (G.Gerder). Platon, Aristotel asarlari ham Yevropaga dastlab arabcha tarjima va talqinlar orqali kirib borgan. "Sharqliklar G‘arbni Aristotel falsafasi bilan yoritdilar" [] (Gegel).

Aniq fanlar va ularni o‘rganish usullarini, dehqonchilik va chorvachilik ilmlari, dengizda suzish, harbiy texnikani Yevropa sharqdan olib rivojlantirdi. "Matematika, kimyo, tibbiyot sohasida musulmonlarning xizmati buyuk. Bu fanlarda musulmonlar Yevropaning muallimlari bo‘lib qoldilar" [] (G. Gerder). Yevropa Uyg‘onish davri adiblari Dante, Petrarka, Bokachcho Sharq ilm-fani, adabiy asarlaridan ilhomlanganlar. Dante "Bazm", "Ilohiy komediya" asarlarida Ibn Sino va Ibn Rushdni o‘z ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga oladi. Axmad Farg‘oniy asarlaridan foydalanganini qayd etadi. K. Marloning "Buyuk Temur" dramasida Amir Temur jasur, xaloskor inson sifatida tasvirlangan. Samarqand, Buxoro kabi markazlarga keltirilgan san’atkorlar-bastakorlik, musiqa ijrochiligi va musiqashunoslik jadal rivojlanishiga hissa qo‘shishgan. Mazkur sohalarida nainki muayyan kasb egalari, balki o‘zga badiiy ijod sohiblari, xususan, Mirzo Ulug‘bek, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Boburlar ham nom chiqarishgan. Bu davrda mahalliy maqom ijodiyoti va ijrochiligi yuksaldi, og‘zaki an’ana-dagi musiqaning boshqa rivojlangan shakllari (doston, ashula, cholg‘u kuy va boshqalar) keng o‘rin egallab, o‘zlarining yuqori pallalariga ko‘tarildi. Ayni shu jarayon keyinchalik Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, katta ashulalar shakllanishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR:

1. Iskandarov, F. (2009). Markaziy Osiyoda arab tilining tarqalishi. Toshkent: Akademiya.
2. Al-Sha'arawi, M. (1993). Al-arabiyya: A Study of Arabic Language and Literature. Cairo: Dar al-Maarifa.
3. Salim, A. (2015). The Role of the Arabic Language in the Development of Islamic Sciences. London: Routledge.

4. Karimov, S. (2012). Sharq uyg‘onishi va uning Yevropa madaniyatiga ta’siri. Buxoro: Farg‘ona universiteti nashriyoti.
5. Al-Bukhari, M. (2010). Arabic Script and Its Influence on World Cultures. Riyadh: Saudi Publishers.
6. Aliyev, K. (2018). Arab yozuvining tarixi va Movarounnahrda ta’siri. Toshkent: Yangi Avlod nashriyoti.
7. Gerder, G. (2001). Musulmonlar ilm-fanining Yevropa rivojiga ta’siri. New York: HarperCollins.
8. Khayrullayev, S. (2004). Arab yozuvi va uning Sharq madaniyatiga ta’siri. Samarqand: Sharq tarixi nashriyoti.
9. Khelifi, M. (1998). Arabic Language and Its Influence on Eastern and Western Thought. Tunis: Al-Kitab Publishers.

MARKAZIY OSIYO MADANIY HAYOTI VA ILM-FAN RIVOJIDA ARAB TILINING TUTGAN O’RNI

A.M.Nomozov

(Sharq tillari fakulteti tyutori , SamSIFL)+998946189290

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda Markaziy Osiyo madaniy hayoti va ilm-fan rivojida arab tilining rolini o’rganish ko’zda tutilgan. Arab tili Markaziy Osiyo, xususan, O’zbekiston hududida ilmiy aloqalar va madaniy almashinuvlar uchun asosiy vosita sifatida ishlatilgan. Islom dini kirib kelgach, arab tilida yaratilgan ilmiy asarlar, xususan, falsafa, tibbiyot, astronomiya va geografiya sohalarida yuksak ilmiy yutuqlarga erishilgan. Tezisdan, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va boshqa ilmiy muassasalarda olib borilayotgan tadqiqotlar hamda arab tilidagi qo’lyozmalarining zamonaviy tahlili, tarjimasi va ularning ilmiy jihatlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, adabiyotshunoslik va matnshunoslik sohasidagi tadqiqotlar, ayniqsa, “Arba’in” janriga oid asarlarning ahamiyati va ularning yosh avlodni tarbiyalashdagi o’rni ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: Markaziy Osiyo, arab tili, ilm-fan rivoji, islom dini, qo’lyozmalar, Sharqshunoslik, ilmiy meros, tarjima, madaniy meros, ilmiy tadqiqotlar.

O’lkamizda ilm-fan rivojlanishi bevosita arab tili bilan uzviy bog’liq jarayon hisoblanadi. Chunki Markaziy Osiyo, xususan, O’zbekiston hududida yaratilgan asosiy ilmiy manbalar hududga islom dini kirib kelgach vujudga kelgani va arab tilida bitilgani barchamizga ma’lum. Sharqdagi “Uyg’onish davri” allomalarining aksariyati o’rta osiyolik olimlar bo’lganligi va ularning asarlari arab tilida yozilgani ilm-fan rivoji islom dini tarqalishi bilan bog’liq ekanligini ko’rsatadi. Olimlarning ilm-fanga bo’lgan qiziqishlari, avvalo, islom dini buyruqlariga amal qilish bo’lsa, boshqa jihatdan ular o’zlarini qiziqtirgan ilmiy savollarga javob izlash maqsadida ilmiy faliyat bilan shug’ullanishgan. Shu tariqa, Sharqda ikki marta “Uyg’onish davri” sodir bo’ldi va ikkala holatda ham arab tili ilm-fanning asosiy tili bo’lib xizmat qildi. Bu davr olimlarining ilmiy asarlarini o’rganish bugungi hayotimizda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

So’nggi yillarda mamlakatimizda boy ma’naviy merosimizning ajralmas qismi bo’lgan qadimgi yozma manbalarni o’rganish masalasi tez-tez urg’ulanadigan mavzuga aylandi. Prezidentimizning 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorida ajdodlarimizning ulkan ma’naviy, ilmiy merosini har tomonlama chuqur o’rganish bo’yicha aniq ko’rsatmalar belgilab berildi. Ayni paytda har biri o’ziga xos ilmiy-madaniy obida bo’lgan arab, fors, turkiy tillardagi manbalarni tadqiq etish, tarjima qilish, eng asosiysi, xalqimizga sof holda yetkazish sharqshunoslar zimmasidagi dolzarb vazifa bo’lib qolmoqda. Markaziy Osiyoda o’zining ilmiy salohiyati va raqobatbardosh kadrlari bilan peshqadam oliygohlardan biri hisoblanuvchi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bu boradagi amaliy ishlar yanada jadallashmoqda.

Yangi O‘zbekistonda xalqimizning uzoq hayotiy tajriba, tushuncha va qadriyatlariga asoslangan o‘lmas merosimizni o‘rganish ma’naviyat va ma’rifatning ajralmas qismi sifatida ustuvor vazifalarga aylandi. Tarixda ikkita Renessansning asosini tashkil etgan ilm-fan va ma’rifat masalasi bugungi hayotimizda ham nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan uning negizida uchinchi Renessansga poydevor qo‘yilishi davlatimiz rahbari tomonidan 2021-yilning dolzarb vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Bu esa, avvalo ilmiy merosimizni chuqur o‘rganish, nimalarga asoslangan holda qadam qo‘yishimizda tayanch nuqta sifatida ilmiy asoslangan targ‘ibotlarni olib borish, qo‘lyozma manbalar asosida tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, adabiyotimiz – madaniyatimiz ildizlarini tadqiq etish hisoblanadi. Yoshlarimiz orasida bu oson bo‘lmagan ishga qiziqishi, qobiliyati bor iqtidorlilarning borligi quvonarli hol. Qo‘lyozmalarni tarixiy, falsafiy, adabiy, matnshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan o‘rganib, ochilmagan yangi qirralarni xalqimizga namoyon etish, yangi asarlarni ilmiy iste’fodaga kiritishda ishtiyoq bilan ishlayotganlar safi kengayib bormoqda. Aynan shunday yoshlar ilmiy natijalari, chiqishlari bilan ma’naviyatimiz, ma’rifatimizning targ‘ibotchilari bo‘ladi.

Prezidentimiz bir qator chiqishlarida hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy, kalom ilmi asoschilaridan biri Abu Mansur Moturidiy va uning davomchisi Abu Muin Nasafiy, buyuk alloma Bahouddin Naqshband kabi ajdodlarimizning ijodini chuqur o‘rganish masalalariga e’tibor qaratib, yangi O‘zbekistonni barpo etishda ota-bobolarimizning ma’naviy, ilmiy jasoratlari mahsuli o‘laroq yaratilgan bebaho asarlar bizga dasturul-amal bo‘lmog‘i lozimligi haqida ta’kidlagan. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida talaba yoshlarni ilmiy tadqiqotlarga yo‘naltirishda ham moddiy merosini o‘rganish masalasiga alohida e’tibor beriladi. Aslini olganda, manbashunoslik sohasida malakali kadrlar tayyorlash nihoyatda izchillik talab etadigan uzoq jarayon. Mazkur jarayonni birmuncha qisqartirish maqsadida ta’limning bakalavr bosqichidan boshlab talaba yoshlar qo‘lyozma meros bilan muntazam ishlashga jalb etilmoqda. Bu amaliyot talabaning keyingi bosqichlarda manbani har tomonlama kompleks o‘rganishiga, tarjimai va tabdilini amalga oshirish, ilmiy matnlarini tuzishida katta yordam beradi va o‘ziga xos tajriba bo‘lishi shubhasiz. Bu borada Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti olimlari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish bo‘yicha tegishli rejalarni amalga oshirilmoqda. Sharq mumtoz adabiyoti, xuddi o‘tmishda bo‘lganidek, hozir ham yosh avlodga mukammal ta’lim berishda, ularni vatanimiz istiqboli uchun munosib tarbiyalab, voyaga yetkazishda bebaho qadr-qimmatga, ulkan ahamiyatga ega.

XIX-XX asrga mansub arab tilidagi qo‘lyozmalar orqali bizga yetib kelgan Toshkent vohasi tarixiy geografiyasiga oid ma’lumotlar tahlili ularning ilmiy tasnifini yaratish va dastlabki yaxlit manbashunoslik tahlilini amalga oshirish va bu sohada tadqiqotlar istiqbolini belgilash imkonini berdi. Arab geograflarining qo‘lyozma asarlaridagi ma’lumotlar bilan solishtirgan holda Toshkent vohasi tarixiy geografiyasining yaxlit manzarasi shakllantirildi. Xalqimiz dunyo tamaddunida muhim rol o‘ynagan ajdodlarini taniyapti.

Ayni paytda “XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida Hakim Termiziy va Abu Iso Termiziy ilmiy merosining xorijda o‘rganilishi” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Izlanishlar davomida mamlakatimizda hamda xorijiy davlatlarning kutubxonalari

va qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan termiziy allomalar asarlarining nusxalarini, ular haqidagi kitoblarni to‘plash va mazmun-mohiyatini o‘rganishda salmoqli natijalarga erishildi. Xususan, 500 dan ortiq aynan Abu Iso Termiziy va Hakim Termiziy asarlarini o‘rganishga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar olib borilayapti. Gollandiyaning mashhur Leyden universitetida allomalar asarlarining qo‘lyozma nusxalarini topishga muvaffaq bo‘lindi. Tadqiqotlar natijasi aks etgan “Al-Hakim at-Termiziy davri va ilmiy merosi xorij tadqiqotlarida” va “Abu Iso at-Termiziyning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi” nomli monografiyalar ilmiy jamoatchilikka taqdim qilindi.

Dastlab arab tilida turli ma’nolarda ishlatilgan **أربعين** “arba’in” istilohi o‘z tarixiy etimologik taraqqiyotida VIII-XII asrlar davomida sof diniy adabiyotdagi bir janr ma’nosida kelgan bo‘lib, keyingi rivojlanish jarayonida uning mavzular doirasi falsafiy-tasavvufiy va adabiy yo‘nalishlar sari kengayib, XV-XVI asrlarda Jomiy, Navoiy va Fuzuliy ijodida mustaqil adabiy-badiiy janr sifatida namoyon bo‘lgan. Jomiy, Navoiy va Fuzuliy ijodiga mansub **أربعين** “Arba’in” – “Chihil hadis” asarlari matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishida tadqiq etildi. “Arba’in” asari axloqiy-tarbiyaviy mazmundagi 40ta hadis sharhiga bag‘ishlangan bo‘lib, har bir hadisning ma’no-mohiyati o‘quvchiga oson tushunilishi va uning ongiga engil singishi maqsadida she’riy tarzda talqin qilingan. Tadqiqot ishida **أربعين** “Arba’in”ning milliy ma’naviyatimiz va adabiyotimiz takomilidagi o‘rni va yosh avlodni tarbiyalashdagi muhim ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Mazkur tadqiqot Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti manbashunoslik bo‘yicha ilmiy ishlari rejasi asosida bajarilgan bo‘lib, unga institut fondida saqlanayotgan 80ga yaqin “Arba’in” asarlarining qo‘lyozmalari jalb etilgan. Shu bilan birga arab, fors va o‘zbek tillarida yozilgan arba’inlarning 38 ta qo‘lyozma nusxalari ham to‘liq tavsiflangan. “Arba’in”lar ham mumtoz, ham zamonaviy adabiyotda an’anaviy janr ekanligi, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy **أربعين** “Arba’in”lari sirasidagi irfoniy asarlarning janr xususiyatlarini aniqlash, shu kabi asarlarning qo‘lyozma nusxalarining matniy tahlili, qiyoslash bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda umumlashmalar, nazariy xulosalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Undan chiqarilgan ilmiy xulosalar va nazariy umumlashmalardan oliy ta’lim tizimi uchun “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”, “Adabiyotshunoslik” hamda “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” fanlari bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanmalar tuzishda, shuningdek, oliy o‘quv yurti talabalari hamda maktab o‘quvchilari uchun Jomiy, Navoiy, Fuzuliy “Arba’in” asarlari badiiyati bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma, ma’ruzalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Al-Biruni, Abu Rayhon. "Kitab al-Hind", Sharqshunoslik Instituti, 2004.
2. Navoiy, Alisher. "Majolisun-Nafais", Toshkent, 1984.
3. Jomiy, Muhammad. "Arba'in", Toshkent, 1987.
4. Fuzuliy, Muhammad. "Divan", Toshkent, 1995.
5. A. M. Shoymardonov, "Markaziy Osiyo ilmiy merosi", Toshkent, 2010.
6. Rahmatov, B. "Sharqshunoslik va uning bugungi ahamiyati", Toshkent, 2012.
7. "O‘zbekiston ilmiy merosi va madaniy yutuqlar", Toshkent, 2020.

8. Karimov, I. A. "Yangi O‘zbekiston: Tarix, Madaniyat va Ma’rifat", Tashkent, 2021.

O’ZBEKISTONDA AYOLNING JAMIYATDAGI O’RNI

Ro’zumbetova Nilufar Komiljon qizi

Samarqand Davlat Chet tillari instituti

Filologiya va tillarni o’qitish (Xitoy tili 2 kurs 23.07-guruh talabasi)

rozumbetovanilufar@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda ayollarning o’rni va mavqeni oshirish bo’yicha yaratib berilayotgan yangiliklar va qulayliklar borasida ko’plab ma’lumotlar berilgan. Jamiyatda ayollarning faolligini oshirish, xotin-qizlarning ilm olishi, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs bo’lib yetishishiga aloqador bir qancha fikrlar keltirilib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Ayol, jamiyat, taraqqiyot, diniy ekstremizm, ijtimoiy-siyosiy, kasb-hunar, demokratik islohot, imkoniyat

KIRISH

O’zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamiyatdagi har bir jabhaga tortish maqsadida mustaqillikning dastlabki yillaridanoq jamoatb irlashmalari, ijtimoiy jamg’armalar va shu ko’rinishdagi muassasalarni tuzish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Mamlakatimiz asosiy qonunining 56-moddasiga muvofiq, “O’zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jmoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi.” Ayollarimizning ijtimoiy faolligini oshirishdagi ma’naviy-axloqiy jihatlar, umuman xotin-qizlar muammolarini hal etish bilan Respublika xotin-qizlar qo’mitasidan tashqari turli nohukumat tashkilotlari, jumladan, O’zbekiston tadbirkor ayollar uyushmasi, “Ayol va salomatlik”, “Mehr” xotin-qizlar jamiyati, “Ayol va lamiyat” instituti va boshqa tashkilotlar shug’ullanmoqda.

ASOSIY QISM

Ayollarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish va tarbiyalash sohasida keng ko’lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jihatdan 25 yoshgacha bo’lgan iqtidorli qizlarni rag’batlantirish maqsadida Respublika Prezidentning Farmoni bilan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etilgan. Ilgari ayollar 15 kilogrammdan yuk ko’tarish me’yor hisoblangan bo’lsa, endi bu miqdor 9 kilogrammni tashkil etmoqda. Xotin-qizlar haq-huquqini himoya qilish tashkilotlari ko’p, shulardan biri Feminizm bo’lib (fransuz, feministe-ayol) degan manoni bildiradi. Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish va ma’naviy qo’llab quvvatlash masalalari butun dunyoda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa faoliyati susaygan, yolg’iz xotin-qizlar masalasi global ijtimoiy muommodir. O’zbekiston Respublikasi davlat xizmatini yuksak malakali va bilimli kadrlar bilan ta’minlash yangi tizimdagi tadbirkorlar qatlami bilan birga hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlar bilan taminlash (ommaviy kasb mutaxassislari, fermerlar, tadbirkorlar, menejment va boshqalar; ikkinchidan, demokratik islohot, bozor munosabatlari talablari, ilmiy-texnik va ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi

bosqichlarini hisobga olgan holda o’rta-maxsus kasb-hunar maktablarini isloh qilish, oliy o’quv yurtidan keyingi ta’limni takomillashtirish; uchinchi, aholining mehnat bilan bandligi yuksak daraja ta’minlash, ishsizlikni bartaraf etish; to’rtinchidan, kadrlar bilan ishlashning yangi me’yoriy hududiy asosini yaratish, uni axborot va ilmiy-tahliliy material bilan ta’minlash ishlariga katta e’tibor qaratilgan. Ayollar faolligini o’ziga xos xususiyatlari bu jarayonning oila, mahalla, mehnat jamoalari kabi sohalarida kechishi bilan ajralib turadi.

“Sog’lom ona-sog’lom bola” dasturini oshirish asosida sog’lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish, onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, pro’filaktikaga asoslangan sog’liqni saqlash tizimini ustuvor rivojlantirish, tibbiy xizmat sohasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sog’lom bolalar tug’ilishi va ularni tarbiyalash bilan bog’liq masalalar yuzasidan aholi o’rtasida tshuntirish hamda maslahat ishlarini kuchaytirish va yosh avlodlarning har tomonlama kamol toishi uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish marsadida 2010-yilda davlat budjetida sog’liqni saqlash sohasidagi xarajatlar 1 trillion 700 milliard so’m atrofida belgilandi, ya’ni 2009-yilga nisbatan 30-foizga ko’paytirildi. Yana ta’kidlash kerakki, 2009-yilda davlat budjetining 50 foizdan ko’prog’i mamlakatimizda faqat ta’lim-tarbiya va sog’likni saqlash sohalarini rivojlantirishga yo’naltirildi. Mamlakatda ayollarning uzoq davrlardan buyon erkaklar bilan ijtimoiy va siyosiy mavqeyi jihatidan tengligini ta’minlashdagi muammolarni bartaraf etish maqsadida, shuningdek, ularning kelajak avlodni tarbiyalashdagi alohida xizmatlar e’tirof etilib, ayollarga nisbatan kuchli ijtimoiy himoya siyosati qo’llab kelinmoqda. Xotin-qizlarni ijtimoiy va siyosiy sohalarida qo’llab quvvatlash maqsadlarida katta ishlar amalga oshirildi. Mahallalarda ayollarni axborotlar bilan ta’minlash, zamonaviy kasblarga o’qitish, ayollarni diniy bilimlar va milliy diniy an’analar asoslarini egallashi hamda diniy ekstremizm va aqidaparastlikning buzg’unchi g’oyalaridan himoyalashga doir qator tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda ayollarning har sohada faolliklari o’sdi. Endilikda ular jamiyatning teng huquqli a’zosi, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ham erkaklar bilan teng darajadagi inson sifatida o’z madaniy, siyosiy va huquqiy saviyalarini oshirib bormoqdalar. Hozirgi davrda ayollar hayotidagi muammolarni o’rganish, ularning yechimlarini topish, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida ilmiy-tadqiqotlar olib borishni hayotning o’zi kun tartibga qo’ymoqda. Ayollar bilan erkaklarning markaziy va mahalliy hokimiyat organlari boshqaruvlarida teng huquqlilik asosida ishtirok etishdagi masalalar Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan tahlil etilib, ulardan xulosalar chiqarib borilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy hayotidagi faolligini oshirish bo’yicha bir qator farmonlari chiqishi ham Yurtboshimizning xotin-qizlar roliga alohida e’tibor berayotganligidan dalolat beradi. 2004-yil 25-mayda PF-3434-sonli “O’zbekiston xotin-qizlar qo’mitasi faoliyatini qo’llab quvvatlash borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar tog’risida”gi Farmoni O’zbekiston Xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy hayotida to’laqonli ishtirok etishni ta’minlash, xotin-qizlarning ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo’lib xizmat qilmoqda. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun, eng avvalo,

ularning huquqiy bilimlarini oshirishga e’tiborni kuchaytirmoq kerak. Buning uchun esa, bizningcha, xotin-qizlarni ko’proq ularning haq huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat tashkilotlarga jalb qilish zarur. Ayollar manfaatlarini himoya qilish maqsad qilib olgan bunday nodavlat tashkilotlar orqali xotin-qizlar o’zlarining haq huquqlarini uyushgan holda himoya qila oladi va natijada ayollarning ijtimoiy faolligi yanada ortib boradi. Mustaqillik yillaeda respublikamizda ijtimoiy-madaniy jarayonlarda xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli darajada oshdi. Bu kabi ko’rsatkichlar fan, ta’lim, madaniyatning turli sohalarida yaqqol ko’zga tashlanadi. O’zbekiston xotin-qizlarning umumiy bilim saviyasi yuqori darajada. Oliy va o’rta maxsus ma’lumotli mutaxassislarning umumiy sonida xotin-qizlarning salmog’i 50 foizdan oshdi. Ayollarning bilim darajasini oshirishga to’sqinlik qiluvchi sabab: oiladagi salbiy munosabatlar, bolalar tarbiyasi hamda uy yumushlari bilan bandligi tufayli vaqt yetishmasligidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jamiyat yuksalishi rivojlanib borishida ayol-qizlarning ro’li katta. Buni biz ushbu maqolada keltirib o’tilgan ma’lumotlardan ham bilib olishimiz mumkin. Ayol yashar ekan, jamiyat hamisha o’sib rivojlanib boraveradi, ayolning ta’lim olish mehnat qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi jamiyatning umumiy farovonligini oshiradi. Va shuni aytib o’tish kerakki Respublikamizda ayollarning har qanday sohada faol ishtiroki kafolatlangan hamda ularning huquq va erkinliklari davlat himoyasidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ayol va huquqiy madaniyat. To’plam.- Toshkent:Adolat.1999.
- 2.Jamiyat hayotida xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faolligi S.Djasanova. -Toshkent: “Tafakkur qanoti” , 2014.
- 3.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent:O’zbekiston,2010.

PSIXOLOGIYA FANINING OILADAGI TARBIYAVIY VAZIFALARI

Sotvoldieva Fotimaxon

*Farg’ona viloyati Toshloq tumani
maktabgacha va maktab ta’limi bo’limiga qarashli 11-maktab psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oiladagi tarbiya jarayonida psixologiya fani yutuqlaridan foydalagishning ahamiyati va yosh oilalarda farzand tarbiyasi haqidagi ma’lumotlar berilgan

Kalit so’zlar: Oila, bola tarbiyasi, oilaviy muhit, oilaga tayyorlash, oilaning jamiyatdagi o’rni.

Аннотация: В данной статье представлена информация о важности использования достижений психологии в процессе семейного воспитания и воспитания детей в молодых семьях.

Ключевые слова: Семья, воспитание детей, семейная среда, подготовка к семье, роль семьи в обществе.

Abstract: This article provides information on the importance of using the achievements of psychology in the process of family education and child education in young families.

Key words: Family, child upbringing, family environment, preparation for family, role of family in society.

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo’lgan yana bir vazifasi tarbiyalash vazifasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo’yish bilan cheklanmasdan, balki uning so’nggi g’ishti qo’yilguncha javobgardir. Ota-ona – san’atkor, bola - san’at asari, tarbiya jarayoni esa san’atning o’zidir. Mustaqillikka erishganimizdan so’ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz, an’analarimiz (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug’, mahallaning ham ta’siri) bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba’zan oilaning tarbiyaviy vazifasining susayishi va targ’ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a’zolari xulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlar ta’siriga berilish, ma’naviy buzuvchilik yo’liga kirish) paydo bo’lishi tashvishlanarli hollardan biridir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur vazifasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma’lum bir siyosiy-g’oyaviy dunyoqarash, axloqiy me’yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda «qush uyasida ko’rganini qiladi» deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni o’zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

Oilada bolalar tarbiyasi. Bolalarda bilimlarni egallashga bo’lgan intilish, ijtimoiy faoliyatning shakllanishida ota-onalarning samarali ishtirok etishlari hal qiluvchi omil bo’lib, bu oila tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Oila tarbiyasida bolalar hayotini to’g’ri tashkil etish ularni vaqtdan samarali va unumli

foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o’yin, mehnat va o’qish faoliyatlari bo’yicha to’g’ri taqsimlash nihoyatda muhimdir. Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog’lom, ma’naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo’nalishlari -jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g’oyaviy hamda jinsiy ta’lim-tarbiya berish, ularda faoliyat ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Oila muhitida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya o’zida bolani har jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o’rgatish, o’z sog’ligi uchun g’amxo’rlik qilish va mas’uliyatli bo’lishni ta’minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi.

Oila tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o’rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko’ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg’ulotlarga jalb etishdan iborat.

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o’zagini tashkil etadi. Uning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar, ota-ona hamda oilaning boshqa a’zolari, shuningdek atrofdagilarga nisbatan adolat, mehr-muxabbat kattalarga hurmat, kichiklarga vijdon, or-nomus, g’urur, burch, insonparvarlik, mehnatsevarlik, sahovat, to’g’riso’zlik, kamtarlik muruvvat, intizomni ijtimoiy anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir.

Oilada estetik tarbiyani to’g’ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq soxta go’zalliklar go’zallikning timsoli emasligini anglab yetishlari lozim.

Yoshlarni oilaga tayyorlash

Yosh avlodni oilaviy xayotga ikki yo’nalishda olib boriladi:

1. Ota - onalar tomonidan (oila muxitida).
2. O’qituvchilar tomonidan (ta’lim muassasalarida).

Bu har ikki yo’nalishda ham o’ziga xos yordamchi omillar mavjud bo’lib, ular mahalla, jamoatchilik, maktabdan tashqari muassasalar va boshqalar hisoblanadi.

Hayot tajribasi asoslanib shuni aytish mumkinki, bolada eng katta ishonchni oila a’zolari tashkil qilar ekan. Bolaning atrofdagi odamlarga munosabati, oila a’zolari o’rtasidagi munosabat axloqiy jihatdan qanchalik yuksakligiga bog’liqdir. Ota - ona mehridan g’amxo’rlikdan baxramand bo’lmagan, oilaning har tomonlama himoyasini his etmagan bola o’z atrofidagi insonlardan doimo xavotirda, hadiksirab yashaydi, uni aksi bo’lgan oilada esa, aksincha bolada atrofdagilarga nisbatan hurmatini kuchaytiradi, uning ijtimoiy faoliyaitini oshiradi.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. O’zbek oilasidagi tarbiyaning o’ziga xosligi va qadr-qimmatini shunchaki, bu yerda farzandlar ongiga eng yuksak e’tiqodni singdirish jarayonida oilaning kattalari - bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug’lar ham bevosita ishtirok etadilar. Azaliy turkiy udumga binoan ota-onadan ham ko’ra bobobuvilarning tarbiyaviy ta’siri kuchliroq bo’ladi. Tarixdan ma’lumki, asosan keksalar oiladagi ma’naviy muhitning boshqaruvchilari bo’lganlar. Masalan, Saroy Mulk xonim Shohruh Mirzoni, suyukli nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug’bek Mirzolar tarbiyasini o’z bo’yniga olgan. Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan- avlodga bebaho

meros sifatida o‘tib kelayotgan oilaviy urf-odat, marosim va bayramlar ham farzandlarni oila muhitida to‘g‘ri tarbiyalashda muhim omil bo‘ladi. Har bir oilaning rioya etilishi lozim bo‘lgan an‘analari va rasm- rusmlarining borligi, ularning jamiyat va mahalla an‘analari oila uyg‘unligi ham bolada oilaga nisbatan e‘tiqodni tarbiyalashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Oilaning jamiyatdagi o‘rni

Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan o‘zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi: - birinchidan, oila ko‘p muddatga, ya‘ni bir necha o‘n yillar va ko‘p yillarga mavjud bo‘ladi; ikkinchidan, oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya‘ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar, avvalo oila muhitida singadi va bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrat, ona mehri orqali amalga oshadi. Bunda oilaviy munosabatlarda tarbiyaviy, psixologik, hissiy, moliyaviy, jinsiy va boshqa vazifalarning amalga oshirilishi kuzatiladi; uchinchidan, oiladagi barcha munosabatlar zaminida salbiy yoki ijobiy holatlar yuzaga keladi, ya‘ni oila a‘zolaridan kimningdir kimgadir ta‘siri oqibatida shaxs yoki yaxshi shakllanishi va komil inson darajasiga yetishi yoki tarbiyasi og‘ir, xulqi buzuk odam bo‘lib tarbiyalanishi mumkin.

Demak, jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan ota-ona va bola, er va xotin, oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar aynan oila negizida yuzaga keladi. Shuning uchun ham qadim zamonlardan boshlab oila, undagi munosabatlar masalalari har bir davrning donishmand, olim, mutafakkirlari tomonidan o‘rganilib kelinganligini va ularning qarashlarida bu masalalarning yoritilganligini kuzatamiz. Bu qarashlarni, fikrlarni sizning hukmingizga havola etish orqali oila, o‘zaro munosabatlar muammolari bizning hayotimizda doimo muhim masalalar sirasiga kirishini qayd etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M.I.Salaxutdinova, T.E.Eshquvvatov, V.Yu.Ahrorov, Sh.B.Nurboboyev. Umumiy psixologiya fanidan ma‘ruzalar matni. Samarqand – 2022
2. Z.T.Nishanova, G.K. Alimova, A.G‘.Turg‘unboeva M.X.Asranboeva. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. Toshkent. 2017
3. O.E.Hayitov. Boshqaruv psixologiyasi: Darslik O‘zbekiston Respublikasi. Chirciq. O‘zDJTSU. 2020

THE ROLE OF GAMES IN TEACHING ENGLISH

Senior teacher **Nishonova D.X**

Tashkent institute of textile and light industry

Annotation. This article shows the benefits of some interesting games in teaching. It can help students practice speech in conversations, develop self-confidence and fluency, assess progress, and encourage learning. It also aims to study teachers' attitudes towards the use of games in English lessons.

Key words: games, languages, teaching, approach, technique, collaborate, activities, motivate.

Using educational games in English language teaching and learning essentially contributes to the objective of learning and obtaining languages through peers and social interaction. Using games in teaching can include joy and fun to the teaching and learning process relieves stress, connects learners to others and to the world around them.

Using educational games in the context of teaching English as a foreign language represents a contemporary pedagogical approach that prioritizes the learner within the educational framework. This method provides learners with enjoyment and psychological comfort, facilitating the development of their physical, mental, psychological, and social dimensions. It encourages a continuous state of activity, interaction, and exploration aimed at achieving specific objectives. Language games are among the most important communicative activities within the language classroom the subject matter.

Teaching through games aims to motivate and encourage students to be more confident in studying English. Teaching English through games brings fun and enjoyment in expanding student's vocabulary, learning proper English grammar. Students learn languages better through interesting activities and for this reason games are very useful tools for teaching them a foreign language. Actually these are the tools that help students learn in an enjoyable environment without making them feel the pressure of learning a foreign language. For this, teachers have an important role. If the teacher uses his creativity and imagination to create new games or improve existing ones, students will not only enjoy language lessons, but also increase their enthusiasm for learning the language. Thus, engaging in educational games in a pleasant and enjoyable environment can accelerate language acquisition, as well as foster a spirit of competition and enhance students' ability to cooperate in groups or individually.

When utilized appropriately in the context of English as a Foreign Language instruction, games can be exceptionally advantageous. For instance, competitive games offer students a natural opportunity to collaborate and communicate, facilitating their acquisition of the foreign language in a manner akin to how they learn their native tongue. The inherent encouragement and interaction fostered by these games enhance the speed and efficiency of information processing. Moreover, educational games motivate students as foreign language learners to engage in activities, driven by their intrinsic desire to succeed. This dynamic reduces stress levels among students, thereby increasing their motivation to learn.

Games naturally capture students’ attention and interest. Unlike traditional lectures or textbook exercises, games can turn learning into an interactive and dynamic experience. The competitive or cooperative elements in games often encourage students to actively participate, leading to increased motivation and enthusiasm for the subject matter.

Many games require students to think critically, make decisions, and solve problems. Whether it’s a strategy board game, a simulation, or an educational video game, students develop important cognitive skills by considering multiple outcomes, evaluating options, and adapting to challenges.

Multiplayer games, in particular, can help build teamwork and social skills. Students learn how to communicate effectively, share ideas, and work together toward a common goal. These social interactions mirror real-world scenarios and prepare students for collaboration in future academic or career settings.

Games offer a safe environment for students to take risks and experiment with new ideas. In many games, failure is simply part of the process, and students learn to adapt and try again without fear of punishment. This mindset promotes resilience and a growth-oriented approach to learning.

Games provide instant feedback, which is crucial for learning. When a student plays an educational game, they can see right away if they’ve made a correct choice or need to adjust their strategy. This immediate feedback loop helps reinforce learning in real-time and allows students to correct mistakes promptly. Every student learns differently. Some are more visual, while others are auditory or kinesthetic learners. Games can cater to a variety of learning styles, whether through visually stimulating graphics, interactive challenges, or hands-on activities. This versatility ensures that more students can engage with the material in a way that resonates with them.

Strategies for Using Games in the Classroom

1. **Incorporate Learning Goals into Game Design** To ensure that games align with educational objectives, it's important to design or choose games that support specific learning goals. Whether it’s reinforcing vocabulary, practicing math skills, or exploring historical events, the game should be structured to reinforce the core concepts being taught.

2. **Start with Simple Games and Progress to More Complex Ones** Introduce students to basic games that they can quickly grasp. Simple games like quizzes or card games are ideal for practicing knowledge. Once students are comfortable with these formats, they can progress to more complex games that require strategic thinking, deeper knowledge, or collaboration.

3. **Use Gamification Techniques** Gamification is the process of applying game-like elements to a non-game environment, like a classroom. Teachers can implement point systems, leaderboards, badges, and rewards to motivate students and track their progress. These elements can make learning feel more like a game, fostering a sense of accomplishment and competition.

4. **Balance Play with Learning** While games are a great tool for engagement, they should not replace traditional teaching methods entirely. Rather, they should complement classroom activities. A game should be seen as a supplement that reinforces what students have learned, rather than a distraction from the core curriculum.

5. Involve Students in Game Creation An effective way to deepen students’ engagement is to have them participate in the creation of games. By designing their own quizzes, puzzles, or other types of games, students take ownership of their learning and can better understand the content they are studying. This also allows them to get creative while applying what they've learned.

Examples of Educational Games

1. Board Games

Classic board games like Monopoly, Scrabble, or even custom-designed games can be used to teach subjects like math, language arts, or history. For example, in a game based on historical events, students could role-play different figures or events, reinforcing their understanding of the material.

2. Card Games

Card games like “Math War” or “Flashcard Games” can help students improve their math skills, vocabulary, or knowledge in other subjects. These games are versatile and can be modified to fit different age groups and learning levels.

3. Digital Games and Simulations

There is an increasing number of educational video games that focus on everything from science to social studies. Games like "Oregon Trail" teach history and survival skills, while "Minecraft" can be used for everything from architecture lessons to creative problem-solving challenges.

4. Role-Playing Games (RPGs)

RPGs can simulate real-life situations or historical events, allowing students to “live” a lesson in a hands-on way. For instance, students can take on the roles of historical figures in a simulated debate or reenact an event from literature, building empathy and a deeper understanding of the subject.

Overcoming Challenges in Using Games

1. Constraints

Incorporating games can take time, both in terms of preparation and actual playtime. To overcome this challenge, teachers can plan short game sessions that are focused and goal-oriented, ensuring that the games don't detract from the rest of the curriculum.

2. Ensuring Fairness

When games involve competition, it's important to ensure that all students have a fair chance of success. Differentiating the difficulty level of games or providing additional support for struggling students can help ensure equity in the classroom.

3. Balancing Fun with Educational Value

While games are inherently fun, it's crucial that the educational value is not lost in the process. Teachers should always tie games back to the learning objectives and ensure that the game experience complements rather than replaces the curriculum.

Conclusion

Games are not just a fun diversion in the classroom; they are powerful tools for enhancing learning, building critical skills, and fostering engagement. Whether through board games, card games, or digital simulations, games offer students the opportunity to learn

actively, experiment with new ideas, and collaborate with their peers. By incorporating games thoughtfully into the curriculum, educators can create a dynamic, engaging, and effective learning environment that resonates with students of all ages.

REFERENCES

1. Abdelrazig Ibrahim, (2017) Advantages of using language games in teaching English as a foreign language in Sudan basic schools, American Academic Scientific Research Journal for Engineering, Technology, and Sciences.
2. Abdelrazig Ibrahim, (2017) Advantages of Using Language Games in Teaching English as a Foreign Language in Sudan Basic Schools, ESP Lecturer: Posha Academy, Kingdom of Saudi Arabia
3. Cagda Kivanc Caganaga, (2016). The importance of using games in EFL classrooms, Cypriot Journal of Educational Sciences
5. Yusupalieva Sh, Sattorova S \Indoneziya International journal of discoveries and innovations in applied sciences\ The importance of speaking in efl classes\ Volume 1 Issue 4, 2021

RUSSIAN AND UZBEK LITERARY FUSION IN ALEXANDER FAYNBERG’S WORKS

Nurmatova Sevinch Baxtiyarovna

Student of translation studies in Uzbekistan State World Language university

Scientific advisor:

Xolbekova Begoyim Abdurahmonovna

Associate professor

Keywords: *Alexander Faynberg, Russian-Uzbek literary exchange, bilingual poetry, cultural synthesis, Soviet literary translation, intercultural adaptation.*

This study explores the literary and cultural synthesis in Alexander Faynberg’s works, focusing on his role as both a poet and translator in merging Russian and Uzbek poetic traditions. His bilingual approach facilitated a deeper understanding between the two literary cultures, balancing linguistic precision with poetic expression [1]. The research examines Faynberg’s stylistic choices, including his adaptation of Uzbek poetic forms into Russian and vice versa, as well as the broader socio-political influences that shaped his literary contributions. Through comparative textual analysis and historical contextualization, the study highlights Faynberg’s significance in fostering Russian-Uzbek literary dialogue.

Alexander Faynberg played a crucial role in bridging Russian and Uzbek literary traditions, actively contributing to the translation and reinterpretation of classical and modern poetry from both languages. His works reflect a fusion of thematic and stylistic elements, demonstrating an in-depth understanding of both poetic traditions [2]. This study aims to analyze how Faynberg navigated linguistic and cultural boundaries, examining whether his translations remained faithful to their original meanings or underwent significant adaptations. Additionally, it investigates the extent to which Soviet ideological frameworks influenced his works, particularly in the adaptation of Uzbek poetry for Russian audiences [3].

This research employs a comparative literary analysis to examine the stylistic features in Faynberg’s translations and original works. Key elements analyzed include lexical choices, metaphorical structures, and rhythmic patterns [1]. The study also applies translation theory frameworks, including Venuti’s domestication and foreignization and Bakhtin’s dialogism, to evaluate Faynberg’s approach to cross-cultural literary adaptation [2]. Additionally, a historical perspective is incorporated to assess the impact of Soviet literary policies on Faynberg’s translation strategies and poetic compositions [3].

Faynberg’s literary contributions highlight a complex interweaving of Russian and Uzbek poetic elements, creating a hybridized poetic voice. The following sections explore key aspects of his work that illustrate this fusion.

Faynberg’s translations exhibit a remarkable ability to preserve the essence of Uzbek poetry while adapting it for Russian readers. His work on Alisher Navoi, for example, demonstrates a balance between literal accuracy and the retention of traditional Uzbek imagery. Consider the following example:

Uzbek Original (Navoi) Faynberg’s Russian Translation

Gul so‘lib, bog‘ oqarib, fasl o‘tdi, ko‘ngil g‘amgin Tsvetok uvyal, sad poblednel, i v
serdtse pechal’

(The flower withered, the garden paled, the season passed, the heart is sorrowful) (The
flower has faded, the garden has paled, and sorrow fills the heart)

Here, Faynberg retains both the structural and emotional essence of the original poem,
demonstrating his commitment to poetic fidelity while ensuring natural readability in Russian
[1].

In addition to translations, Faynberg’s own poetry reflects a fusion of Russian and Uzbek
literary elements. His bilingual poems often incorporate Uzbek vocabulary, imagery, and
rhythmic influences, creating a poetic style that transcends linguistic boundaries. His themes
frequently explore nostalgia, cultural identity, and historical reflection, mirroring the concerns
of the Uzbek poets he translated [2].

Like many Soviet-era translators, Faynberg operated within strict ideological constraints
that shaped his literary choices. Uzbek poetry, often rich in spiritual and nationalistic themes,
was sometimes altered to fit Soviet narratives. For instance, religious elements in Uzbek
classical poetry were frequently reinterpreted in secular or socialist terms [3]. The following
comparison highlights this adaptation:

Uzbek Original (Sufi Poem) Faynberg’s Translation

Jonimni senga fido aylan, ey yor Ya zhizn’ otdam vo imya lyubvi

(I sacrifice my soul for you, beloved) (I give my life in the name of love)

Here, a spiritual and mystical phrase is reframed in secular romantic terms, aligning with
Soviet literary policies that discouraged religious sentiment [4].

Alexander Faynberg’s works demonstrate a unique interplay between Russian and Uzbek
literary traditions, reflecting both artistic innovation and ideological adaptation. His ability to
merge the rhythmic and metaphorical richness of Uzbek poetry with Russian literary structures
underscores his importance in cross-cultural literary studies [1]. Future research may explore
how post-Soviet translation practices have continued or diverged from Faynberg’s approach, as
well as the broader implications of bilingual literary synthesis [3].

REFERENCES

1. Venuti, L. (1995). *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. London: Routledge.
2. Bakhtin, M. (1981). *The Dialogic Imagination: Four Essays*. University of Texas Press.
3. Munday, J. (2016). *Introducing Translation Studies: Theories and Applications*. Routledge.
4. Soviet Literary Policies and Translation Norms (Historical Archives).

EKOLOGIK ME’YORLAR VA MILLIY QONUNCHILIKNI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH

Qodirov Abduvohid Abdumannof o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi
abduvohidqodirov097@gmail.com ORCID 0009-0000-6668-0481

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ekologik me’yorlar va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi tahlil qilinadi. Jahon hamjamiyatida ekologik muammolarning dolzarbligi oshib borayotgani sababli, qonunchilikni xalqaro talablarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kioto protokoli, Parij kelishuvi va BMTning atrof-muhitni muhofaza qilishga oid hujjatlari milliy qonunchilikka ta’sir ko’rsatuvchi asosiy xalqaro mexanizmlardan hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko’rsatadiki, ekologik standartlarni joriy etishda qonunchilik, nazorat mexanizmlari, iqtisodiy omillar va texnologik taraqqiyot o’rtasidagi uyg’unlikni ta’minlash muhimdir. Shuningdek, jamoatchilik ishtiroki va innovatsion yondashuvlar ekologik qonunchilikni takomillashtirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik qonunchilik, xalqaro standartlar, Kioto protokoli, Parij kelishuvi, iqlim o‘zgarishi, atrof-muhit muhofazasi, texnologiyalar, jamoatchilik ishtiroki, barqaror rivojlanish.*

KIRISH

Bugungi kunda ekologik muammolar jahon hamjamiyatining e’tibor markazida turibdi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish global miqyosda muhim vazifa hisoblanadi. Davlatlar o’rtasida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologiya sohasidagi munosabatlarning murakkablashib borishi milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg’unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon jahon hamjamiyatining birgalikdagi harakatlarini talab qilib, atrof-muhit muhofazasi bo’yicha qonunchilikni xalqaro andozalarga muvofiqlashtirish orqali yaxshilanishi mumkin.

Ekologik qonunchilikni takomillashtirish va uning xalqaro standartlarga mosligini ta’minlash nafaqat ayrim davlatlar, balki butun insoniyat uchun muhimdir. Kioto Protokoli, Parij kelishuvi kabi xalqaro hujjatlar asosida atrof-muhitni muhofaza qilish bo’yicha aniq me’yor va majburiyatlar belgilab berilgan. Biroq, bu me’yornlarning milliy qonunchilikka qanday darajada tatbiq etilishi va ularning amaliy ijrosi har bir davlatda turlicha kechmoqda. Shuning uchun milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayonini o’rganish va tahlil qilish muhim vazifa sanaladi.

Mavzuning dolzarbligi Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish tamoyillari xalqaro huquqning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. BMT, Yevropa Ittifoqi, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ekologik standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo’yicha ko‘plab tashabbuslar ilgari surilmoqda. Shu bois, milliy qonunchilikni ushbu standartlarga moslashtirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va kelgusi avlodlar uchun sog‘lom muhitni saqlab qolish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish tamoyillari xalqaro huquqning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. BMT, Yevropa Ittifoqi, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ekologik standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha ko'plab tashabbuslar ilgari surilmoqda. Shu bois, milliy qonunchilikni ushbu standartlarga moslashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va kelgusi avlodlar uchun sog'lom muhitni saqlab qolish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, sanoat va iqtisodiyotning tezkor rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi hamda tabiiy resurslarning cheklanganligi davlatlardan atrof-muhitni muhofaza qilishga jiddiy yondashishni talab qilmoqda. Iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi va havo ifloslanishi kabi muammolarning oldini olishda xalqaro standartlarga mos keladigan milliy qonunchilikni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar insonlar hayotiga bevosita ta'sir o'tkazmoqda. Tabiiy ofatlar sonining ortishi, suv resurslarining kamayishi va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlar bu masalaning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va insoniyat uchun qulay muhitni ta'minlash maqsadida milliy qonunchilik xalqaro ekologik standartlarga moslashtirilishi shart.

Har bir davlat o'z qonunchiligini xalqaro ekologik me'yorlarga uyg'unlashtirish orqali atrof-muhit muhofazasida global hamkorlikka hissa qo'shishi mumkin. Bunda fuqarolik jamiyati, xususiy sektor va davlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, fuqarolarning ekologik huquq va burchlarini aniq belgilab berish orqali qonunchilikning samaradorligini oshirish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bitimning maqsadi BMT Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy Konvensiyani amalga oshirishni faollashtirish, global o'rtacha haroratning sanoatlashishigacha (1750 yil) bo'lgan darajaga nisbatan +2 gradusgacha saqlab turishdan iborat. Bu 2050 yilga kelib, issiqxona gazlarini 40-70 foizga kamaytirishni va 2100 yilga borib, uni 0 ga tushirishni talab etadi.

2017 yil 19 aprelida BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida O'zbekiston Parij Bitimini imzoladi. Bitimni imzolash uchun BMT Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy Konvensiya kotibiyatiga issiqxona gazlar tashlanmalaridagi milliy miqyosda belgilanadigan hissasini kamaytirish to'g'risida hujjat taqdim etildi. Mazkur bitim 2018 yili 3 oktyabrda ratifikatsiya qilindi. 2030 yilgacha uzoq muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasi iqlim o'zgarishiga qarshi kurash chora va harakatlarni kuchaytirishni – 2030 yilga kelib issiqxona gazlari solishtirma tashlanmalarini 2010 yildagi darajaga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 10 foizga qisqartirishni mo'ljallamoqda.

Ekologik huquq va xalqaro standartlar bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar va me'yoriy hujjatlar mavjud. Xususan, Kioto Protokoli (1997)[1], Parij kelishuvi (2015)[2], BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP)[3] va Iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro panel (IPCC)ning tavsiyalari ekologik me'yorlarni shakllantirishda muhim manbalar hisoblanadi.[4]

Ekologik huquq sohasida taniqli olimlar, jumladan, Jeyms Xansen (Hansen, 2009) [7], Nikolaas Stern (Stern, 2006) [8] hamda O'zbekistonlik olimlardan professor A.Yusupov (Yusupov, 2020) ekologik huquq va milliy qonunchilikka oid tadqiqotlarida xalqaro va milliy

tajribalarni chuqur tahlil qilganlar.[9] Stern hisoboti iqlim o‘zgarishining iqtisodiy ta’sirini baholab, milliy qonunchilikda iqtisodiy mexanizmlarni qo‘llashning ahamiyatini ta’kidlaydi. Xansenning tadqiqotlari esa iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda qattiqroq me’yoriy choralarni zarurligini ko‘rsatadi. Professor A.Yusupov esa O‘zbekistonda ekologik qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘llarini tahlil qilgan.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqining atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qonunchilik tizimi, Jahon banki va BMT doirasida qabul qilingan qator xalqaro ekologik standartlar, shu jumladan, UNEP, UNFCCC va IPCC hisobotlari milliy qonunchilikni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[10]

Shu o‘rinda amerikalik huquqshunoslar mamlakat Konstitutsiyasini ekologiya huquqi normalari shakllanadigan huquqiy tizim uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi “bilvosita manba” sifatida ta’riflaydilar. AQShning ekologik qonunchilikni ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan barcha umumiy konstitutsiyaviy normalarini uch yirik guruhga ajratishimiz mumkin: 1) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida huquqiy tartibga solishni amalga oshirish bo‘yicha Kongress vakolatlarini belgilovchi normalar; 2) ushbu vakolatni chegaralovchi normalar; 3) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasini huquqiy tartibga solishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan fuqarolarning huquqlariga oid normalar. AQSh ekologik qonunchiligida asosiy o‘rinni konstitutsiyaviy qoidalarni sud sharhi egallaydi hamda u ekologik munosabatlarni har qanday sohada qo‘llashni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ekologik me’yorlar va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishni qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ekologik qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni tahlil qilinganda, quyidagi asosiy muammolar va tendensiyalar aniqlandi:

1. Qonunchilikdagi tafovutlar – ko‘plab davlatlarda ekologik standartlar bo‘yicha huquqiy normalar turlicha talqin qilinib, ularni amaliyotga joriy etishda farqlar mavjud.
2. Nazorat va ijro mexanizmlari – xalqaro standartlarga muvofiq ekologik me’yorlarni tatbiq etish uchun samarali monitoring va huquqiy ijro mexanizmi talab etiladi.
3. Iqtisodiy omillar – iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va sanoatni rivojlantirish maqsadida ayrim davlatlar ekologik standartlarga rioya qilishda ortga qolmoqda.
4. Jamoatchilik ishtiroki – ekologik masalalarda jamoatchilik nazorati va shaffoflikni oshirish muhim ahamiyatga ega.
5. Texnologik taraqqiyot va innovatsiyalar – ayrim davlatlarda ekologik standartlarni joriy etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi past bo‘lib, bu ekologik muammolarni samarali hal qilishga to‘sqinlik qiladi.

Quyidagi jadval ekologik qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish darajasini qiyosiy tahlil qilish uchun keltirilgan:

1-jadval

Ekologik qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish darajasi [11]

Davlatlar	Kioto Protokoliga muvofiqlik	Parij kelishuviga muvofiqlik	Ekologik nazorat darajasi	SO2 chiqindilari (million tonna)
AQSh	60%	75%	Yuqori	5100
Germaniya	85%	90%	Yuqori	750
Xitoy	70%	80%	O‘rtacha	10800
O‘zbekiston	50%	60%	Past	110

Iqlim o‘zgarishi va sanoat ta’siri Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq holda sanoat va transport sohalaridagi SO2 chiqindilarining ortgani asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Dunyo miqyosida SO2 chiqindilarining o‘shish tendensiyasi quyidagi diagrammada aks ettirilgan:

Innovatsion yondashuvlar va takliflar Ekologik qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va uni samarali joriy etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Qonunchilikni takomillashtirish – xalqaro ekologik standartlarga muvofiq milliy qonunlarning uyg‘unlashtirilishini ta’minlash.
- Investitsiyalar va texnologiyalar – ekologik toza texnologiyalarni qo‘llash uchun moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish.
- Jamoatchilik vakilligini oshirish – ekologik qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolar ishtirokini ta’minlash.
- Ta’lim va xabardorlik – aholi va tadbirkorlar uchun ekologik standartlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini amalga oshirish.

Xulosa. Ekologik qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish nafaqat atrof-muhit muhofazasi, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanish uchun ham muhimdir. Davlatlar hamkorligini kuchaytirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va ekologik nazoratni mustahkamlash bu jarayonda asosiy ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologik innovatsiyalar va «yashil iqtisodiyot» strategiyalarini joriy qilish ekologik barqarorlikni ta’minlashda samarali mexanizm hisoblanadi. Bundan tashqari, Parij kelishuvi va Kioto protokoli doirasidagi majburiyatlarning samarali amalga oshirilishi davlatlarning iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashida muhim o‘rin tutadi.

Xalqaro va mahalliy darajada qonunchilikni muvofiqlashtirish orqali iqtisodiy o‘shish va atrof-muhit muhofazasi o‘rtasida muvozanatni ta’minlash mumkin. Shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi ekologik hamkorlik va ma’lumot almashinuvi samaradorlikni oshirishda muhim omildir. Barqaror rivojlanishga erishish uchun ekologik ta’lim va xabardorlikni oshirish, innovatsion yechimlarni rag‘batlantirish va qonunchilikni doimiy ravishda takomillashtirish talab etiladi.

Har bir mamlakat o‘zining milliy qonunchiligini xalqaro talablarga va zamonaviy texnologik yechimlarga muvofiq rivojlantirish orqali, nafaqat atrof-muhit muhofazasi, balki

iqtisodiy rivojlanish va fuqarolar farovonligini ham oshirishi mumkin. Ilmiy va huquqiy yondashuvlar birgalikda olib borilganda, ekologik barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot o‘rtasidagi muvozanatga erishish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. KiotoProtokoli(1997)NFCCE. <https://unfccc.int/resource/docs/convkp/kpeng.pdf>
2. Parij kelishuvi (2015). UNFCCC. <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement/the-paris-agreement>
3. BMT Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP). <https://www.unep.org/>
4. IPCC iqlim o‘zgarishiga oid hisobotlari. <https://www.ipcc.ch/reports/>
5. O‘zbekiston Respublikasining «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi qonuni. <https://lex.uz/docs/5084184>
6. Yevropa Ittifoqining atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha me‘yorlari. https://ec.europa.eu/environment/index_en.htm
7. Hansen, J. (2009). Storms of My Grandchildren. Bloomsbury Publishing. ISBN: 978-1608195022
8. Stern, N. (2006). The Stern Review: The Economics of Climate Change. HM Treasury. https://webarchive.nationalarchives.gov.uk/ukgwa/20100407172811/http://www.hm-treasury.gov.uk/stern_review_report.htm
9. Yusupov, A. (2020). «O‘zbekiston ekologik qonunchiligi va xalqaro standartlar». Toshkent: Akademnashr. ISBN: 978-9943-20-839-4
10. Environmental Policy and Law, Journal of Environmental Management. <https://www.journals.elsevier.com/environmental-policy-and-law>
11. UNFCCC, UNEP, IPCC hisobotlari asosida muallif ishlanmasi

СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ В СИСТЕМЕ МОРАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В ВОЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

А.Мирзалиев

*научный соискатель военного факультета,
Ферганского государственного университета*

Аннотация. В статье анализируются ключевые проблемы морально-психологической подготовки (МПП) в системе военного образования. Рассматриваются недостатки действующих методик, нехватка квалифицированных кадров, слабая интеграция современных психологических технологий и отсутствие индивидуализированного подхода. Представлены схемы и таблицы, демонстрирующие основные проблемы и предлагаемые пути их решения.

Ключевые слова: морально-психологическая подготовка, военное образование, стрессоустойчивость, боеспособность, психологическая адаптация, инновационные методы.

EXISTING PROBLEMS IN THE SYSTEM OF MORAL AND PSYCHOLOGICAL TRAINING IN MILITARY EDUCATION

A.Mirzaliyev

*Scientific candidate of the
Military Faculty, Ferghana State University*

Annotation. The article analyzes the key problems of moral and psychological training (MPT) in the military education system. The disadvantages of current methods, the lack of qualified personnel, the weak integration of modern psychological technologies and the lack of an individualized approach are considered. Diagrams and tables are presented that demonstrate the main problems and proposed solutions.

Keywords: moral and psychological training, military education, stress tolerance, combat capability, psychological adaptation, innovative methods.

HARBIY TA’LIMDA AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIK TIZIMIDA MAVJUD MUAMMOLAR

A.Mirzaliyev

*Farg‘ona davlat universiteti
harbiy ta’lim fakulteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada harbiy ta’lim tizimidagi axloqiy-ruxiy tayyorgarlikning (MPT) asosiy muammolari tahlil qilinadi. Amaldagi usullarning kamchiliklari, malakali kadrlarning etishmasligi, zamonaviy psixologik texnologiyalarning zaif integratsiyasi va individual

yondashuvning yo‘qligi ko‘rib chiqiladi. Asosiy muammolarni va ularni hal qilishning tavsiya etilgan usullarini ko‘rsatadigan sxemalar va jadvallar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *axloqiy-ruxiy tayyorgarlik, harbiy ta’lim, stressga chidamlilik, jangovar samaradorlik, psixologik moslashuv, innovatsion usullar.*

ВВЕДЕНИЕ

Морально-психологическая подготовка (МПП) является важнейшей составляющей системы военного образования, направленной на формирование у курсантов и военнослужащих устойчивости к учебно-боевым стрессам, высокого уровня моральной мотивации, умения преодолевать трудности и эффективно действовать в экстремальных условиях. Несмотря на важность МПП, на практике существует множество проблем, снижающих её эффективность.

Среди ключевых проблем можно выделить:

- устаревшие методики подготовки, не учитывающие современные исследования в области военной психологии;
O‘qitish metodlari deganda, ta’lim jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning to‘la anglagan holda birgalikda ishlash usullari tushiniladi. Hamma o‘qitish metodlariga ikkita asosiy talab qo‘yiladi: birinchidan, o‘qitish metodlari darsda o‘quvchilarning mustaqil bilish faoliyati aktivlashuviga yordam berishi va ikkinchidan, o‘rganilayotgan materialni o‘quvchilarning chuqur anglab olishi va to‘la o‘zlashtirishini ta’minlashi lozim. O‘quvchilarning mustaqil ravishda bilim o‘rttirish faoliyati darajasi asos qilib olingan metodlar tizimi mazkur talablarga to‘la mos keladi.

Tushuntirish-ko‘rgazmali metod - o‘qituvchi turli vositalar yordamida tayyor axborot beradi, o‘quvchilar esa bu axborotni idrok qiladilar, anglab tushiniboladilar va eslab qoladilar.

Reproduktiv metod - o‘qituvchi instruktajlar, topshiriqlar, mashqlar tizimidan foydalanib, o‘quvchilarning olgan bilimlari va o‘rgangan ish usullarini takrorlashiga imkon

beradigan mashg’ulot tashkil etadi. O’quvchilar namunaga qarab buyum tayyorlashni o’rganishadi va malaka orttirishadi. O’quvchilarning bilimi va malakasi ortgan sari ular har ikkala metoddan birgalikda tez-tez foydalana boshlaydilar.

Muammoli bayon - o’qituvchi muayyan muammolarni ilgari suradi, uni o’zi hal qiladi, muammoning mumkin bo’lgan yechimini izlar ekan, uni topishning mantiqiy yo’llarini qadam-baqadam ochib beradi va o’quvchilarga ilmiy-daliliy fikrlash namunasini ko’rsatadi. O’quvchilar fikrining o’zgara borishini kuzatib, mulohazada ishtirok etadilar va muammoni hal etish bosqichlarini o’zlashtiradilar.

Ta’lim tarbiya oldiga qo’yilayotgan asosiy talablardan biri — yuqori malakali, o’z sohasining bilimdoni bo’lgan o’qituvchilar bazasini shakllantirish bilan birga, metodologiyaning to’g’ri tashkil etilishi, tanlangan texnologiya va metodlarning mavzularga muvofiqligini ta’minlashdir. Metodologiyani rivojlantirish o’quvchining muayyan nazariy bilimlarni puxta o’zlashtirishga, vaqtni tejashga, har bir o’quvchini faollikka undashga, ularning erkin va mustaqil fikrlash layoqatini hamda o’z fikrini himoya qila olish ko’nikmalarini shakllanishga olib keladi.

Texnologiya fanini o’qitish samaradorligini oshirishda o’qituvchilar barcha dars jarayonlarida ilg’or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishlari, fan yo’nalishlari bo’yicha kerakli o’quv adabiyotlarni izlab topishlari, ijtimoiy tarmoqlarda masofadan turib o’z hamkasblari bilan o’zaro fikr almashib hamkorlikda ish olib borishlari lozim. Hozirgi kunda ta’lim sohasi yoki o’quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo’llanilib, yuqori samarali natijani kafolatlay oladigan dars shakli, metodi va AKT vositalaridir.

Men bunga misol qilib 5-sinflarda “Yog’och buyumlarni duradgorlik usulida biriktirish texnologiyasi” mavzusida tajriba ilindi. Duradgorlik ishlarida ulab uzaytirilgan detalli yog’och konstruksiyalardan ham keng foydalaniladi. Bu esa, o’z navbatida, yog’och materiallarini isrof qilmasdan, tejamkorlikni oshirishga xizmat qiladi. Duradgorlik va qurilish ishlarida duradgorlik birikmalarini bog’lash usullari singari yog’ochlarni ulab uzaytirishning ham bir necha usullaridan keng foydalaniladi.

Yog’ochdan turli buyumlar tayyorlash va boshqa ishlarni bajarish uchun yog’och materiallarni o’lchash va rejalash kerak bo’ladi. Buning uchun maxsus asboblardan foydalaniladi.

Ishlatishdan oldin har qanday yog’ochni qayta ishlash kerak. Bu ko’pincha korxonalarda maishiy foydalanish uchun mavjud bo’lmagan maxsus mashinalardan foydalangan holda sodir bo’ladi. Agar oz miqdordagi materialni qayta ishlash kerak bo’lsa, yog’ochni qo’lda qayta ishlash qo’llaniladi.

Yog’ochni qo’lda qayta ishlash nima?

Yog’ochni mexanik qayta ishlash — bu materialni qayta ishlashning bir turi bo’lib, u daraxtning shakli va hajmining o’zgarishini anglatadi, ammo shu bilan birga uning barcha xususiyatlarini o’zgarishsiz saqlaydi. Mexanik ishlov berish maxsus texnologiyalar yordamida, shuningdek qo’l asboblari yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bu oz miqdordagi yog’ochni qo’l asboblari bilan mexanik qayta ishlash va uni qo’lda yog’ochni qayta ishlash deb atash mumkin. Qo’lda tayyorlangan yog’och texnologiyasi qayta ishlash usuliga bog’liq.

Yog’ochni qo’lda qayta ishlash quyidagi usullarni o’z ichiga oladi:

- belgilash;
- shakli va o’lchamining o’zgarishi: arra;
- sirtni tekislash: tekislash, silliqlash va halqa;
- burg’ulash yordamida teshiklarni yoqish, chisel va pechkalar bilan ishlash.

Yog’och va taxta materiallardan tayyorlanadigan buyumlarning aniq o’lchamli va sifatli chiqishi, ish vaqti va materialni tejash qiymati o’lchov hamda rejalash asboblariidan o’rinli foydalana olishga bog’liq bo’ladi.

O’lchash deb yog’och materialining o’lchamlarini va shaklini aniqlashni aytiladi. Bu asboblarga chizg’ichlar, matr, ruletka, go’niyalar, xatkash transporti va o’lchov andozalari kiradi.



Xulosa o’rnida aytish mumkinki, texnologiya fanida yog’och bilan ishlash, qo’l mehnati, asboblardan to’g’ri foydalanish dolzarb ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahkamov S. O’quv ustaxonalarida o’tkaziladigan amaliy mashg’ulotlar. Toshkent-«O’qituvchi»-2011
2. Grigor’ev M.A. Duradgorlarga ishlab chiqarish ta’limini berish. Toshkent. O’qituvchi. 2018.y
3. Muranov B.I. «Mehnat ta’limi muammolari, xususiyatlari». «Qashqadaryo ziyokori», 2000 yil 10-soni.
4. Abdullayeva Sh., Axatova D.A. Pedagogika. - T.: Fan, 2004.
5. Tohirov O’O. va boshq. Texnologiya. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / T.: “Sharq”, 2020. – 240 b
6. www.ziynet.uz

YOSH VOLEYBOLCHILARINI SPORT MUSOBAQALARIGA TAYYORLASH VA SARALAB OLIHNING MAZMUNI

Siddiqova Feruza.....

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarini voleybol sport musobaqalarigatayyorlash va saralab olish haqida ma'lumotlar berilgan va tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Musobaqa, voleybol, jismoniy tarbiya, o'quvchi, rivojlanish, mashg'ulot, natija, sifat.

Ta'lim va tarbiyaning rivojlanishida yoshlar qatlamining bilimva mahoratingyuksakdarajaga chiqishini ta'minlashda bugungi kunda zamonaviy yondashuvga ehtiyoj seziladi. Ayniqsa sportning butun dunyo jamiyat hayotidagi roli tobora oshib chuqurlashibborishihardoim innovasion va ilmiy yondashuvga asoslanib yondashishni taqozo etadi. Bugungi kundapedagogik ta'lim innovasion klasteri va akmeologiyaning sport sohasida amaliyotgatadbiqqilinishi zamonaviy mexanizmdir. Butun jahon mamlakatlarida nafaqat voleybol, shuningdek boshqa sport turlari bo'yichamusobaqalarga tayyorlash hamda saralab olish amaliyotida maktab o'quvchilari butunbazaningasosini tashkil qiladi va boshlang'ich tayyorgarlik davrida o'smirlarning jismoniytayyorgarlikdarajasini oshirish mexanizmlaridan foydalanib yosh o'quvchilar ichidan iqtidorli sportchilarnisaralab olish va voleybol sport turini o'rgatishning samarali usullarini tatbiq qilishengmuhimvazifadan hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar orasida shunday klublar borki, o'smirlarni hatto 4-5yoshidan boshlab mashg'ulotga qobiliyati borligini va genetik prognoz orqali saralabolishjarayonlari amalga oshiriladi.

Shuningdek, bu jarayonga kompleks tarzda zamonaviyyondashishzarurati yuzaga kelmoqda. Zero, yoshlarning iqtidorini erta aniqlash va uni to'g'ri yo'naltirish ta'limningamaliyahamiyatini oshirishga bevosita bog'liq. Chunonchi, Xitoy, Rossiya, Angliya, Fransiya,Germaniya, Janubiy Koreya, Avstriya, Amerika, Ispaniya kabi rivojlangan mamlakatlardata'limga nisbatan barqaror yondashuvning qaror topganligi mehnat bozorida etukkadrlargabo'lgan ehtiyojni to'la ta'minlash imkonini bermoqda. Ta'limning ustuvor yo'nalishlaridanbirisifatida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlarni ta'limamaliyotiga tatbiq etish, xususan, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sportning voleybol turigao'quvchilarni jismoniy tayyorgarligini har tomonlama rivojlantirish orqali ularningijtimoiylashuvini qaror toptirish bugungi kun pedagogikasida dolzarb ahamiyat kasbetmoqda. Respublikamizda sport o'yinlari tizimida sportchilarni sport musobaqalarigatayyorlashva saralash eng dolzarb muammolardan biri sifatida qaraladi. Shu jumladan bolalarninghartomonlama intellektual rivojlanishida yosh avlodni shakllantirish, jamiyat rivojigamosbarkamol shaxsni voyaga etkazishga barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa umumta'limmaktablari o'quvchilarini musobaqalarga tayyorlash va ular orasidan iste'dodli yoshlarni saralabolish maqsadida sport to'garaklari (seksiya) mashg'ulotlarini tashkil etish, sportgaixtisoslashtirilgan (voleybol, futbol, gandbol, basketbol va hakazo) sport maktablariga, ta'limmuassasalari va sport klublariga iqtidorli yosh avlodni tizimli ravishda jalb qilish va tanlabolishchora tadbirlari qisman darajada ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda zamon

Sport maktablarining amaldagi dasturlarini tahlil qilish, o‘quvchilarni boshlang‘ich tayyorgarlik guruhlariga tanlash, ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida yosh voleybolchilarni bitiruv va joriy sinovlariga asosan jismoniy rivojlanganligi, jismoniy texnik tayyorgarligi belgilarini hisobga olish asosida o‘tkazilishini ko‘rsatadi.

Shubilan bir vaqtida so‘nggi yillarda respublikamizda keng tarqalgan sport turlaridan biri – voleybolning rivojlanishida yaqqol ko‘zga tashlanadigan tomonlaridan biri kombinasion o‘yinining kuchayishi hisoblanadi. Bu esa sportchilarning o‘yinda fikrlashlari va taktik tayyorgarliklariga bir qator qat‘iy talablarni qo‘yadi. Voleybol bilan shug‘ullanish uchun bolalarni tanlashda boshqako‘rsatkichlar bilan birgalikda faqatgina jismoniy rivojlanganlik, jismoniy va texnik tayyorgarlikko‘rsatkichlari yordamida aniqlash mumkin bo‘lmagan o‘yin faoliyatiga qobiliyatlarini rivojlantirish va namoyon etishga sabab bo‘luvchi shaxsiy sifat va xususiyatlarini aniqlash alohida ahamiyatga ega.

Bu borada yurtimizda keng ko‘lamda ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2002-yil 31 oktyabr, 374-son. Bolalar sportini targ‘ib qilish va bolalar uchun sport tovarlari ishlab chiqarish turlarini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-iyul, 318-sonli qarorlari yosh qatlamning rivojlanishi va sport gayanada qiziqishining ortib borishiga muayyan darajada xizmat qilib kelmoqda. Buning zamirida hozirgi kunda sportda erishilayotgan yutuqlarimiz olimpiadada yuqori cho‘qqilargacha qiziqishimizning o‘zi sportimizning kundan-kunga rivojlanib borayotganligining yaqqol isbotidir. Aynan, o‘quvchilarni jismoniy qobiliyatlarini kamol topishida psixologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etib, ularning turli jarayonlarda turlicha takomillashishini aspekti sifatida o‘ziga xos xususiyatga ega.

Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikka bo‘linadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik sport trenirovkasini muhim vazifalaridan biri sifatida shug‘ullanuvchilarning to‘laqonli jismoniy taraqqiyoti va har tomonlama jismoniy tayyorgarligini ta‘minlashga qaratiladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik zarur hayotiymalakanitakomillashtirishga va asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayondir.

Maqsadi maxsus jismoniy tayyorgarlikning poydevori bo‘lgan umumiy jismoniy tayyorgarlik bazasini yaratishdir. Umumiy jismoniy tayyorgarlikning vazifalari - asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish, organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish harakat malakalarining hajmi va ijroi chegarasini kengaytirish va sog‘liqni mustahkamlash, tiklanish jarayonini faollashtirish, organizmning tashqi va ichki salbiy ta’sirlariga bo‘lgan bardoshini oshirishdan iborat. Maxsus jismoniy tayyorgarlik - tanlangan sport turida yuqori natijalarga erishish maqsadida shu sport turida asosiy va hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayondir.

Vazifalari: - voleybolga xos maxsus harakat sifatlari va qobiliyatlarini (tezkorlik, kuch-tezkorlik, chaqqonlik, maxsus chidamkorlik va h.) rivojlantirish; - o‘yin texnikasini o‘zlashtirishda zarur bo‘lgan kombinatsiyalarni rivojlantirish; - o‘yin taktikasini o‘zlashtirishda zarur bo‘lgan kombinatsiyalarni rivojlantirish; Maxsus jismoniy tayyorgarlik sport trenirovkasining barcha bosqich va davrlarida hajm va shiddat jihatidan munosib me’yorda qo‘llaniladi. Nazariy va psixologik tayyorgarlik “Psixologiya” - ruhiyat va xislatlarni

o‘rganuvchi fanni ifodalaydi. Demak, “psixologiktayyorgarlik” jumlasini o‘rniga “psixik tayyorgarlik” jumlasini qo‘llash aniqroq bo‘ladi deyish mumkin. Jismoniy tayyorgarlikni yuqori darajaga chiqarishda bir necha muhim shartlarni amalga oshirish darkor. Jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda voleybol sport turimusobaqalariga jismoniy tayyorgarlik akmeologiyasini shakllantirish shartlari: - vaqtni to‘g‘ri tashkil etish; - faol harakatlanish pozitsiyani shakllantirish; - texnika va taktikani to‘g‘ri qo‘llash; - tezkor fikrlash hamda vaziyatni oldindan ko‘ra bilishga o‘rgatish; - ixtisoslashtirilgan tartibli mashqlar tizimini ishlab chiqish; - mashqlar yuqumliligining yoshga qarab darajalarini aniq belgilash; Akmeologik yondashuv esa uning eng yuqori darajaga chiqish yo‘llarini asoslash bilan xarakterlanadi.

Buning uchun: - voleybolga mos bo‘lgan harakatli o‘yinlar orqali rivojlanish dinamikasi va shakllanganlik darajasi bo‘yicha datlabki jismoniy sifatlarini shakllantirishga doir nazariy va amaliy ishlar jarayonimexanizmi takomillashtiriladi; - progressiv rivojlanishga hamda birinchi navbatda shaxsning professionalizmi vamuayyan mehnat sub’ektlari faoliyatining taraqqiyotiga imkon beradigan talablar, sharoit va omillarni shakllantirish, yosh voleybolchilarning sifat ko‘rinishini o‘zgartirish tizimi ishlab chiqiladi; Musobaqalarga tayorlash va saralash xulosalari natijalarining katta amaliy ahamiyatidagi, ular insonni qanday sharoitlarda intellektual, jismoniy va ma’naviy faollikka o‘qqisiga olib chiqqanligi to‘g‘risida ma’lumotni ifodalaydi va natijaviy samaradorlikka erishish yo‘llarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шукурллаев Ж.М. Бошланғич синф ўқувчиларини волейбол спорттурига саралаб олиш усуллари тақомиллаштириш. “Бошланғич таълимни компетенсиявий таъкил этиш: назария ва амалиёт” мавзусидаги онлайн ҳалқаро илмий-назарий анжуман. 2020-йил 28-апрел.

2. Утепбергенов А.К, Шукруллаев Ж.М. Особенности акмеологического подхода и системы дидактического обоснования развития физических качеств школьников средствами волейбола. Экономика и социум №3(82) 2021.

3. Shukurllayev J.M. O‘quvchi yoshlarni voleybol sport turiga tanlab olishning metodik xususiyatlari.

4. Jismoniy tarbiya va sport jurnali. 2018-yil.

5. Shukurllayev Jurabek Maqsadbaevich. Voleybol sport turi vositasida maktab o‘quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik imkoniyatlari. Xalq ta’limi. № 5 2021 yil 28-30-bet.

6. Shukurllayev Jurabek Maqsadbaevich. Klaster yondashuv asosida voleybolchilarning jismoniy ko‘rsatkichlarini rivojlantirish. Xalq ta’limi. № 5 2021 yil 57-59-bet.

HISOBLASHDA O‘QUVCHILAR YO‘L QO‘YISHI MUMKIN BO‘LGAN XATOLARNI ANIQLASH VA UNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Mahmudova Hulkarxon Halimovna

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani

1-son politexnikumi

Annotatsiya: *Ta’lim tizimini isloh qilish va unga hamohang dastur hamda darsliklarni yaratish mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq zaruriy ehtiyojga aylandi. Ayni shu maqsadda darslik vazifasini, uning g‘oyaviy yo‘nalishini mustaqillik ehtiyoji nuqtai nazaridan qayta tahlil etilib, bir qator tavsiya maqomiga ega bo‘lgan qo‘llanmalar yaratildikim, ular uzluksiz ta’lim tizimidan darsliklarning dunyoga kelishida dasturulamal bo‘lib xizmat qildi.*

Kalit so‘zlar: *Xatolar ustida ishlash, ta’lim tizimi, darslik, nazariy bilimlar, Savol-javob, ta’lim metodi va texnikasi, tahlil qilish, izlanish, kuzatish, mustaqil ishlash.*

Xatolar ustida ishlash darsini o‘rganish yuzasidan o‘rganilgan nazariy bilimlarning amalda qo‘llanish jarayoni bilan tanishtirish va amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish. Xatolar ustida ishlash darsini o‘rganish dars rejakonspektini tuzish ko‘nikmasini hosil qilish.

1. Maktabda xatolar ustida ishlash darsini o‘rganish yuzasidan o‘rganilgan nazariy bilimlarini amalda tatbiq eta olish.

2. Xatolar ustida ishlash darsining qurilishini, ishlanmasini o‘rganish va mustaqil dars ishlanma tuza olishni bilish.

3. Kuzatilgan dars yuzasidan dars tahlili va yozma hisobot shaklini tayyorlay olishi. 4. Savol-javob va bahs-munozarada qatnashish, berilgan topshiriqlarni bajarish.

Ta’lim metodi va texnikasi: Savol-javob, tahlil qilish, izlanish, kuzatish, mustaqil ishlash. Yozma va kompyuter texnologiyasidan foydalanish: taqdimot, ko‘rgazmalar. Xatolarning oldini olish har tomonlama takomillashtirishning asosiy garovidir.

O‘quvchilar yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolarning oldini olish uchun o‘qituvchi quyidagi chora-tadbirlarni amalgam oshirishi lozim:

- har darsda o‘quvchilarning mustaqil ishlarida uchragan tipik xatolar hisobini olib boorish va keyingi soatlarda mustaqil ishning tegishli xatolarni bartaraf etishga qaratilgan turlaridan foydalanish;

Xatolarni bartaraf qilishda, ayniqsa, yozma ish tahlilini o‘tkazish yoki xatolar ustida ishlash darslari ahamiyatlidir.

Xatolar ustida ishlash darsida quyidagilarga e’tibor bermaslik natijasida o‘quvchilar ishda anchagina kamchiliklarga yo‘l qo‘ymoqdalar:

- yozma ish tahliliga ajratilgan vaqtning noto‘g‘ri taqsimlanishi;

tipik xatolar doirasidan chetga chiqmaslik;

- xatoni bartaraf etishga o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘ota olmaslik;

ularni passiv tinglovchiga aylantirish hamda xato ustida ishlashga am e’tibor berib, xilma-xil ish formalar (turli kartochkalar, darslikdagi mashqlar va b.) dan foydalana olmaslik;

- har bir o’quvchining bilim saviyasi va mustaqil ishlash qobiliyatini hisobga olmaslik, differentsial topshiriqdan foydalanmaslik;

- yozma ishda yo’l qo’yilgan xatolarning to’g’ri klassifikatsiya qilinmasligi tufayli o’quvchilar diqqatini tipik xatolar ustia ishlash paytida asosiy masalaga jalb eta olmaslik;

- yozma ishda qoniqarsiz baho olgan o’quvchilarning tahlil jarayonida e’tibordan chetda qolishi;

- o’quvchilarning oldingi yozma ishlarida yo’l qo’ygan xatolarini hisobga olmaslik hamda bu xatolarning qanday bartaraf etilayotganligini nazorat qilmaslik;

- o’quvchilarni yo’l qo’yilgan xatolarning sabablarini tahlil qilishga o’rgatmaslik.

Chunonchi, Davlatimiz rahbari o’zlari bunga naqadar jon kuydirib aytgan fikrlari bunga yaqqol misol bo’la oladi. Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko’rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o’z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko’paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o’tish vazifasini qo’ygan. Bu yutuqqa qanday erishyapti? Albatta, yoshligidanoq bolalarning ta’lim va tarbiyasiga chuqur e’tibor berish orqali. “2022-2030-yillarda O’zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi” yaratilishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Chindan ham, bugun biz ulug’ niyatlar bilan poydevorini qo’yayotgan yangi Uyg’onish davri mamlakatimizda mana shunday ulkan boylik yaratishga, xalqimiz hayotini farovon qilishga va kelgusi avlodlarga o’zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi.

Xulosa o’rnida, Ana shu tashkiliy pedagogik jarayonda ta’lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta’lim metodlarining paydo bo’lishi, ta’lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa ta’limni tashkil etishda o’qituvchi mahoratining noan’anaviy shakllari keng ko’lamda joriy etilishi kuzatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumayev M.E. Matematika o’qitish metodikasi (OO’Y uchun darslik) Toshkent. . “Turon-Iqbol” 2016 yil 426b.

2. Jumayev M.E. va boshqalar Matematika o’qitish metodikasi (OO’Y uchun darslik) Toshkent. . “Turon-Iqbol” 2018 yil 626b.

3. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi. (OO’Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.

FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Aydarkulova Malika

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Matematika va informatika fakulteti,

Matematika yònalishi 1-bosqich 24/2 guruh talabasi

Qo'ziyeva Zebo

24/1 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Falsafa va e'tiqod: O'tmish, bugun va kelajak" mavzusi tahlil qilinadi. Falsafa va e'tiqodning inson hayotidagi o'rni, ularning o'zaro munosabati va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, ilm-fan va e'tiqod o'rtasidagi bahslar, diniy va sekulyar jamiyatlarning afzalliklari hamda zamonaviy dunyoda ushbu tushunchalarning o'zaro uyg'unlashuv imkoniyatlari muhokama qilinadi. Yakuniy qismda esa falsafa va e'tiqodning kelajak avlodlar uchun qanday ahamiyat kasb etishi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Falsafa, e'tiqod, ilm-fan, din, sekulyar jamiyat, axloq, tanqidiy tafakkur, diniy qadriyatlar, ilmiy tafakkur, jamiyat rivoji, falsafiy tafakkur, ma'naviyat, bag'rikenglik, ilm va din munosabati, kelajak.

"Falsafa va e'tiqod: O'tmish, bugun va kelajak" mavzusi falsafa va diniy e'tiqodning insoniyat tarixidagi o'rni, ularning o'zaro ta'siri va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini o'rganadi. Falsafa inson aqlining olamni tushunishga intilishi bo'lsa, e'tiqod insonning ma'naviy va axloqiy yo'nalishini belgilaydi. O'tmishda ular bir-birini to'ldirgan yoki qarama-qarshi bo'lgan. Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti bilan falsafa va e'tiqod yangi shakllarga kirib, jamiyatdagi rolini o'zgartirmoqda. Kelajakda esa texnologik va axloqiy taraqqiyot bu sohalarga yangi muammolar va imkoniyatlar taqdim etishi kutilmoqda.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – falsafa va e'tiqodning insoniyat tarixidagi o'rni, ularning jamiyat va tafakkur taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qilish, hamda kelajakda qanday rivojlanishi mumkinligini muhokama qilishdir. Maqola orqali: falsafa va e'tiqodning o'zaro bog'liqligini tushuntirish, ularning o'tgan asrlardagi va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini tahlil qilish, texnologiya va ilm-fan taraqqiyoti natijasida falsafa va e'tiqodning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini taxmin qilish maqsad qilingan.

Bu orqali insoniyat o'zining intellektual va ruhiy taraqqiyotini qanday muvozanatga keltirishi mumkinligi haqida tushuncha beriladi.

Insoniyat tarixida falsafa va e'tiqod ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro ta'siri olamshumul kashfiyotlar va madaniy yuksalishlarga sabab bo'lgan. Masalan, Yevropa Uyg'onish davrida Aristotel va Ibn Sino falsafasining qayta kashf etilishi ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishiga kuchli turtki bergan.

FALSAFA VA E'TIQODNING ASOSIY JIHATLARI

Falsafa va e'tiqod inson tafakkuri va ma'naviyatining ikki muhim ustunidir. Ular jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qilib, odamlarning hayotiy qarashlarini shakllantirgan. Ushbu

bo‘limda falsafa va e’tiqodning asosiy jihatlari va ularning bir-biridan farqli hamda o‘xshash tomonlari tahlil qilinadi.

Falsafa – inson aqli orqali olam, hayot va mavjudlik haqida chuqur fikr yuritish san’ati bo‘lib, u mantiq, axloq, metafizika, epistemologiya kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Falsafa savol beradi, shubha qiladi va mantiqiy asoslangan javoblarni izlaydi.

E’tiqod – insonning diniy yoki ruhiy qarashlarini belgilaydigan, hayotga ma’no va axloqiy yo‘nalish beradigan tushuncha. E’tiqod ko‘pincha ilohiy kuchlarga ishonishga asoslanadi va dinlar orqali shakllanadi.

Falsafa va e’tiqodning o‘xshashligi va farqlari

O‘xshashliklar:

- Ikkalasi ham insonning hayot mazmunini izohlashga intiladi.
- Axloqiy tamoyillar va jamiyatni boshqarish qoidalarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.
- Har ikkisi ham insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib, tarixiy jarayonlarga ta’sir qilgan.

Farqlar:

- Falsafa haqiqatni mantiqiy izlanish va shubha qilish orqali topishga harakat qiladi, e’tiqod esa qat’iy ishonch va an’anaviy ta’limotlarga tayanadi.
- Falsafa dalillar, tahlil va mantiqqa asoslanadi, e’tiqod esa ko‘pincha tasdiqlangan muqaddas matnlar va diniy ta’limotlar bilan bog‘liq bo‘ladi.
- Falsafa doimiy ravishda o‘zgarishi va rivojlanishi mumkin, e’tiqod esa odatda doimiy va barqaror tizim sifatida saqlanadi.

Falsafa va e’tiqodning jamiyatga ta’siri. Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish – falsafa va e’tiqod insonlarning xulq-atvori, odob-axloq qoidalarini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Fan va madaniyat rivojiga ta’sir – falsafiy tafakkur ilmiy yutuqlarning rivojlanishiga turtki bergan, e’tiqod esa madaniyat, san’at va me’morchilikda o‘z ifodasini topgan. Tinchlik va ziddiyatlar manbai – tarixda falsafa va e’tiqod jamiyatni birlashtirgan holatlar bo‘lgani kabi, ba’zan ularning to‘qnashuvi kelishmovchilik va mojarolarga ham sabab bo‘lgan. Ushbu jihatlar falsafa va e’tiqodning inson hayotidagi chuqur ildizlarini va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Keyingi bo‘limda ularning tarixiy rivojlanishi va bugungi kunda qanday shakllangani haqida batafsil tahlil qilamiz.

Falsafa va e’tiqodning insoniyat hayotidagi o‘rnini yaxshiroq tushunish uchun tarixiy va zamonaviy misollarga murojaat qilamiz.

Bugungi kunda falsafa va e’tiqodning jamiyatga ta’siri

1. Sekulyarizmning o‘sishi falsafiy tafakkurga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Misol: Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlarida e’tiqod erkinligi va sekulyarizm kuchaygan. Masalan, Fransiya va Germaniya singari davlatlarda din va davlat alohida saqlanadi. Shu bilan birga, falsafiy tafakkur orqali axloq, huquq va inson erkinliklari bo‘yicha muhim qarorlar qabul qilinmoqda.

2. Diniy e’tiqod hanuz jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Misol: Ko‘plab mamlakatlarda diniy bayramlar, marosimlar va an’analar jamiyatni birlashtirishda katta ahamiyatga ega.

Masalan, Ramazon va Rojdestvo kabi diniy bayramlar nafaqat e’tiqod, balki madaniy birlikni ham ifodalaydi.

3. Falsafa va e’tiqod kelajakdagi texnologik taraqqiyotga ta’sir qiladi. Misol: Sun’iy intellektning rivojlanishi bilan falsafa va e’tiqodning axloqiy masalalardagi o’rni yana muhokama qilinmoqda. Masalan, robotlar axloqiy qarorlarni qabul qilishi mumkinmi? Sun’iy intellekt inson huquqlariga qanday ta’sir qiladi? Bu kabi savollar falsafa va e’tiqod nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinmoqda.

Bu dalillar shuni ko’rsatadiki, falsafa va e’tiqod faqat tarixiy hodisalar emas, balki bugungi kun va kelajak uchun ham dolzarb mavzulardir. Keyingi bo’limda ularning kelajakdagi yo’nalishlari haqida fikr yuritamiz.

Yuqoridagi dalillar va misollar shuni ko’rsatadiki, falsafa va e’tiqod inson tafakkuri va jamiyat rivojida muhim rol o’ynagan, o’ynamoqda va o’ynashda davom etadi. Ularning o’zaro aloqasi turli tarixiy davrlarda o’zgarib kelgan va har doim ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo’lib qolgan. Quyida bu holatlarning chuqur tahlilini ko’rib chiqamiz.

1. Falsafa va e’tiqodning o’zaro ta’siri. Falsafa va e’tiqod ba’zan bir-biriga mos kelgan, ba’zan esa ziddiyatga kirishgan. Masalan, Ibn Sino va Ibn Rushd falsafa orqali diniy e’tiqodga ilmiy izoh berishga harakat qilgan. Ular "aql bilan ishonch uyg’un bo’lishi kerak" degan tamoyilni ilgari surgan. Ammo O’rta asr Yevropasida falsafiy fikrlash cherkov tomonidan cheklangan va Galiley yoki Jordano Bruno kabi olimlar ta’qib qilingan. Bugungi kunda esa falsafa va e’tiqod nisbatan uyg’unlashgan. Sekulyar jamiyatlar falsafiy tafakkurga asoslangan bo’lsa-da, din va e’tiqod jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda davom etmoqda. Buning yorqin misoli – dunyodagi ko’plab davlatlar konstitutsiyalarida inson huquqlari, erkinlik va axloqiy tamoyillar falsafiy asoslangan bo’lsa ham, ularning ko’pchiligi diniy qadriyatlarga mos keladi.

2. Zamonaviy jamiyatda falsafa va e’tiqodning roli. Bugungi dunyoda falsafa va e’tiqodning vazifasi avvalgidan biroz farqlanadi: falsafa texnologiya, ekologiya, sun’iy intellekt va inson huquqlari kabi dolzarb muammolarni hal etishga harakat qiladi. E’tiqod esa insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy birdamlikni saqlashga yordam beradi. Misol uchun, bioetika sohasida (tibbiyot falsafasi) sun’iy organlar, genetik manipulyatsiya va klonlash masalalari bo’yicha qizg’in falsafiy va diniy munozaralar olib borilmoqda. Ilm-fan rivoji yangi axloqiy muammolarni yaratmoqda, bu esa falsafa va e’tiqodni doimiy yangilanishga majbur qilmoqda.

3. Kelajak uchun prognoz: Falsafa va e’tiqod qanday rivojlanadi? Texnologik taraqqiyot va globallashtirish falsafa va e’tiqodga yangi yo’nalishlar ochib bermoqda. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish jamiyatdagi axloqiy me’yorlarni o’zgartirishi mumkin. Virtual reallik va raqamli muhit din va e’tiqodni yangicha shakllarda namoyon qilishi mumkin. Falsafa insonning o’rni, ong va kelajakdagi axloqiy tamoyillarni chuqurroq o’rganish zaruratini oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, falsafa va e’tiqod kelajakda ham insoniyatning tafakkur va ma’naviyatiga ta’sir qilishda davom etadi. Muhimi, bu ikki tushuncha bir-birini rad etish o’rniga, jamiyat taraqqiyotini qo’llab-quvvatlovchi kuchga aylanishi lozim.

Xulosa

Falsafa va e’tiqod inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotining ikki muhim ustuni bo‘lib, ularning o‘zaro munosabati tarix davomida doimo bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelgan. Falsafa va e’tiqodning inson hayotidagi roli – Falsafa tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi, ilmiy izlanishlarni rag‘batlantiradi, e’tiqod esa insonning axloqiy qadriyatlarini shakllantiradi va ruhiy barqarorlikni ta’minlaydi. Ular bir-biriga zid bo‘lishi mumkin bo‘lsa ham, ko‘plab mutafakkirlar ularni uyg‘unlashtirishga harakat qilgan.

Kelajakda falsafa va e’tiqodning uyg‘unligi muhim bo‘lib qoladi. Ochiq fikrlilik, bag‘rikenglik va ilmiy tafakkurni rivojlantirish orqali insoniyat har ikki yo‘nalishning eng yaxshi jihatlaridan foydalangan holda yanada taraqqiy etishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibn Sino. “Kitob ash-Shifo” – Falsafa va ilm-fanning uyg‘unligi haqida asar.
2. Ibn Rushd. “Tahafut at-Tahafut” – Din va falsafaning o‘zaro munosabatini tahlil qiluvchi kitob.
3. Tomas Akvinskiy. “Summa Theologica” – Din va falsafaning uyg‘unligini yorituvchi fundamental asar.
4. Nietzsche, F. “Thus Spoke Zarathustra” – Falsafa va e’tiqodning inson tafakkuridagi o‘rni haqida.
5. Russell, B. “A History of Western Philosophy” – G‘arb falsafasi tarixi va diniy e’tiqod bilan bog‘liq yondashuvlar.
6. Eynshteyn, A. “Science and Religion” – Ilm-fan va e’tiqodning uyg‘unligi haqida fikrlar.
7. William James. “The Varieties of Religious Experience” – Diniy tajribalar va ularning inson psixologiyasiga ta’siri.
8. Karl Popper. “The Logic of Scientific Discovery” – Ilm-fan va falsafaning tanqidiy tahlili.
9. Charles Taylor. “A Secular Age” – Sekulyarlik va e’tiqodning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni.

MAMLAKATIMIZDA AGROTURIZMNING ALOHIDA YO‘NALISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MOHIYATI

A.A.Rustamov

*Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti
“Turizm va mehmonxona xo‘jaligi” kafedrası mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. *Mamlakatimizda agroturizmning alohida yo‘nalishlarini rivojlantirish, qishloq hududlarida iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga katta hissa qo‘shadi. Agroturizmning alohida yo‘nalishlari, jumladan, vinoturizm, agroekoturizm, farm stay (fermer uyida qolish), o‘simliklar va hayvonlar bilan tanishish, qishloq hududlarining turizm salohiyatini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada, agroturizmning rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning mamlakatimizning qishloq xo‘jaligi va turizm tizimidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, agroturizmni rivojlantirishda to‘sqinlik qilayotgan omillar va ularni yengish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar ham ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Agroturizm, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo‘jaligi, vinoturizm, agroekoturizm, farm stay, ekologik barqarorlik, turizm salohiyati, mahalliy aholi, turizm infratuzilmasi, mamlakatimizda agroturizmni rivojlantirish.*

Agroturizm, bu o‘z ichiga qishloq joylarida joylashgan fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini turistlarga taqdim etish, ular bilan bevosita bog‘lanish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish jarayonlarini o‘z ichiga olgan turizm shaklidir. Mamlakatimizda agroturizm sohasining rivojlanishi iqtisodiyotning barqarorligini ta‘minlash, qishloq aholisining turmush farovonligini oshirish va ekologik turizmni rag‘batlantirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni ko‘zda tutadi. Agroturizmning rivojlanishi nafaqat qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining diversifikatsiyasi, balki turizm sohasining yangi imkoniyatlarini ochish, qishloq hududlarini rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shishi mumkin.

Agroturizmning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, avvalo, uning turizm va qishloq xo‘jaligi sohalarini birlashtirish orqali iqtisodiy tizimni diversifikatsiyalash va ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlash bilan bog‘liq. Agroturizmni rivojlantirish orqali quyidagi asosiy ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar amalga oshadi:

Ijtimoiy rivojlanish. Agroturizm hududiy rivojlanishni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Qishloq joylarida yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi turmush farovonligini oshirish va mahalliy an‘analarga hurmatni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, turizm orqali mahalliy madaniyatni keng ommaga tanitish va uning boyliklarini saqlashga hissa qo‘shadi.

Iqtisodiy rivojlanish. Agroturizm qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni bozorga chiqarish imkoniyatlarini yaratadi. Bu o‘z navbatida eksportni oshirishga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bozor narxini barqarorlashtirishga, shuningdek, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga yordam beradi.

Barqaror rivojlanish. Agroturizm ekologik barqarorlikni ta‘minlashga hissa qo‘shadi, chunki u tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni va ularni asrashni rag‘batlantiradi.

Agroekoturizmda ekologik muhofaza masalalari ko‘tariladi, bu esa uzoq muddatli barqaror rivojlanishga olib keladi.

Agroturizmning alohida yo‘nalishlari, o‘z navbatida, qishloq joylarida turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi. Agroturizmni rivojlantirishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar mavjud:

1. Vinoturizm: Vinoturizm – bu uzumchilik va vino ishlab chiqarish bilan bog‘liq turizm turi bo‘lib, o‘z ichiga uzumzorlarni tomosha qilish, vino ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganish va ularni tatib ko‘rish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu yo‘nalish ayniqsa, uzumchilik va vino ishlab chiqarish rivojlangan hududlarda katta imkoniyatlar yaratadi.

2. Farm Stay (Ferma uyida qolish): Bu turizm turi turistlarga fermer xo‘jaliklarida turib, qishloq hayoti bilan bevosita tanishish imkonini beradi. Bunday turizm nafaqat turistlarga yangi tajriba berishi, balki qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Agroekoturizm: Bu yo‘nalishda ekologik barqarorlikka e‘tibor qaratiladi. Agroekoturizmda turistlar tabiatga yaqin joylarda dam olishlari, qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan tanishishlari, ekoturistik xizmatlardan foydalanishlari mumkin.

4. O‘simliklar va hayvonlar bilan tanishish: Agroturizmda turistlarga qishloq hayotidagi turli o‘simliklar va hayvonlar bilan tanishish imkoniyati beriladi. Bu nafaqat o‘qituvchi, balki ekologik ta‘lim ham bo‘lib, turistlarga tabiiy resurslarni asrab-avaylashga oid bilimlar beradi.

Agroturizmning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar mavjud bo‘lib ularga quyidagilar kiradi: Infratuzilmaning etishmasligi. Qishloq hududlarida infrastruktura, jumladan, transport, aloqa va energetika tarmoqlari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa turistlar uchun noqulaylik tug‘diradi. Ma‘lumot yetishmasligi. Agroturizmni rivojlantirishda mahalliy aholi va turistlar uchun yetarli ma‘lumot va reklama materiallarining mavjud emasligi. Boshqa mamlakatlardagi tajriba va innovatsion usullarni o‘rganish, yangi turizm yo‘nalishlarini yaratish uchun ma‘lumot almashish zarur. Xususiy sektor va davlat o‘rtasidagi hamkorlikning yo‘qligi. Agroturizmni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning kuchaytirilishi kerak. Davlat tomonidan subsidiya va rag‘batlantirish mexanizmlarining joriy etilishi bu sohani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

1-jadval

Agroturizmning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar

Omil	Agroturizmning alohida yo‘nalishlari	Agroturizmning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan holatlar
Infratuzilma rivoji	Infratuzilma etishmasligi, transport va aloqa tizimlari rivojlanmagan	Infratuzilmani yaxshilash, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish zarur
Ma‘lumot va reklama	Mahalliy aholi va turistlarga ma‘lumot yetishmasligi, reklama faoliyatining pastligi	Ma‘lumot almashish va reklama faoliyatini kuchaytirish zarur
Xususiy sektor va davlat hamkorligi	Xususiy sektorning o‘rni past, davlat qo‘llab-quvvatlashi yetishmasligi	Xususiy sektor bilan samarali hamkorlik va davlat qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish zarur
Mahalliy aholi va ish o‘rinlari	Ish o‘rinlari yaratish past, aholi turmush darajasi past	Ish o‘rinlarini ko‘paytirish va aholi turmush darajasini oshirish zarur
Ekologik barqarorlik	Ekologik barqarorlikka e‘tibor	Ekologik barqarorlikni ta‘minlash va tabiiy

	etilmayapti, tabiiy resurslar noto‘g‘ri boshqarilmoqda	resurslardan samarali foydalanish zarur
--	--	---

Mamlakatimizda agroturizmning alohida yo‘nalishlarini rivojlantirish, qishloq joylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash, mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish va ekologik barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Agroturizmni rivojlantirishda zamonaviy infratuzilma, ma‘lumot almashish va davlat-xususiy hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu soha nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, balki turistlarga qishloq hayotining xususiyatlarini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Briedenhann, J., & Wickens, E. (2004). Tourism routes as a tool for the economic development of rural areas - vibrant hope or impossible dream? *Tourism Management*, 25(1), 71-79.
2. Phillip, S., Hunter, C., & Blackstock, K. (2010). A typology for defining agritourism. *Tourism Management*, 31(6), 754-758.
3. Tew, C., & Barbieri, C. (2012). The perceived benefits of agritourism: The provider’s perspective. *Tourism Management*, 33(1), 215-224.
4. OECD (2009). *The impact of culture on tourism*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
5. Roberts, L., & Hall, D. (2001). *Rural Tourism and Recreation: Principles to Practice*. Wallingford: CABI Publishing.
6. Busby, G., & Rendle, S. (2000). The transition from tourism on farms to farm tourism. *Tourism Management*, 21(6), 635-642.
7. Barbieri, C., & Mahoney, E. (2009). Why is agritourism successful? Understanding visitors' motivations towards agritourism. *Journal of Travel Research*, 48(3), 294-307.
8. Sharpley, R., & Vass, A. (2006). Tourism, farming and diversification: An attitudinal study. *Tourism Management*, 27(5), 1040-1052.
9. Ilkhamov, A., & Kadyrov, D. (2020). Agrotourism development in rural areas: Prospects and challenges. *Economic and Social Research Journal*, 3(2), 45-53.
10. Gil Arroyo, C., Barbieri, C., & Rozier Rich, S. (2013). Defining agritourism: A comparative analysis of stakeholders’ perceptions in Missouri and North Carolina. *Tourism Management*, 37, 39-47.
11. Iorio, M., & Corsale, A. (2010). Rural tourism and livelihood strategies in Romania. *Journal of Rural Studies*, 26(2), 152-162.
12. Williams, N., & Ferguson, M. (2005). Agricultural tourism as economic opportunity for farmers. *Journal of Sustainable Agriculture*, 27(1), 59-72.
13. Rustamov, A. A. (2021). Agroturizmni rivojlantirishda hududiy xususiyatlarning roli. *O‘zbekiston Turizm Jurnali*, 2(5), 20-27.
14. UNWTO (2020). *Rural Tourism: Harnessing the power of tourism for rural development*. Madrid: United Nations World Tourism Organization.

15. Zhao, W., & Getz, D. (2008). Rural tourism destinations: A network perspective. *Annals of Tourism Research*, 35(4), 1012-1032.
16. Hasanov, Sh. & Karimov, M. (2019). Agroturizmning iqtisodiy samaradorligi: O‘zbekiston tajribasi. *Qishloq Xo‘jaligi va Turizm Tadqiqotlari Jurnal*i, 1(4), 55-62.
17. Hall, C. M., Roberts, L., & Mitchell, R. (2003). *New Directions in Rural Tourism*. Aldershot: Ashgate Publishing.

Konferensiyaning maqsadi:

Professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlarni jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va takomillashtirish, shuningdek yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi ustuvor vazifalarini amalga oshirish hamda mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, yoshlarimizning ma‘naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

BOSH MUHARRIR:

Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich

MAS’UL KOTIB:

Xasanov Tursunali Xaydarali o‘g‘li

NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

Xasanov Nurmuhammad Xaydarali o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

“Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 77-sonli respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi materiallari to‘plami, 1-Mart, 2025-yil. – Farg‘ona shahri: BestPublication, 2025. – 96 b.



Success
Business

Customer
Management
Standard
Development
Consistency
Business
Optimal

Innovation
Branding
Solution
Marketing
Analysis
Ideas
Success

